

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

Qo'lyozma huquqida

UDK 80

Nurmatov Xursandbek Axmadillayevich

HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA BOLALIKNING BADIY TALQINI

5A 120101 – Adabiyotshunoslik

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun

yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. D.Quronov

Andijon – 2016

MUNDARIJA

Kirish	
I BOB. BOLALIK XOTIRALARI VA YOZUVCHI IJTIMOIIY QARASHLARI	
1.1. A.Qahhorning “O`tmishdan ertaklar” asarida ijtimoiy qarashlar ifodasi	
1.2. G`.G`ulomning “Shum bola” asarida bolalik xotiralari	
1.3. Oybekning “Bolalik” qissasida ijtimoiy hodisalar talqini	
II BOB. UMR SARHISOBI EHTIYOJI VA BOLALIKKA QAYTISH	
2.1. A.A`zamning “Quroq” qissasida bolalikka qaytish motivi	
2.2. Bolalikka qaytish umr sarhisobi sifatida (A.Obidjon. “Ajinasi bor yo`llar” asari)	
III BOB. BOLALIKKA QAYTISH KOMPOZITSION USUL SIFATIDA	
3.1. U.Hamdamning “Muvozanat” romanida retrospeksiya	
3.2. Retrospeksiyaning asar strukturasidagi ahamiyati	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Inson qalbida hamisha ruhiy ozuqaga ehtiyoj seziladi. U o'z qalbini uyg'otish, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch-quvvat manbalarini izlaydi. Tarix va xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma'lumot olish uchungina tarixni o'qimaydi. Bu unga o'tmish haqida tasavvurga ega bo'lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Adabiyot esa tarixga katta umr bag'ishlovchi asosiy omillardan biridir. Shu tinch jamiyatda xalqimizning o'tmishiga qiziqish uyg'otish, xalqni o'zligini anglashga undash mas'uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo'lib o'z zimmasiga oladi. Bolalikka qaytish, xotirlash orqali kitobxon ko'z o'ngida tarixning asl mohiyatini gavdalantirib berish uchun nasriy asarlar katta imkoniyatga ega. Shunga ko'ra, o'zbek adabiyotidagi bolalik motivining xususiyatlari, funksiyalarini tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi. Respublikamiz mustaqillikka erishishi bilanoq yurtimizda yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Chunki mamlakatimiz ravnaqi, xalqimizning faravonligi, bizning ertangi kunimiz, kelajagimiz, istiqbolimiz yoshlar qo'lidadir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'lim tizimida keskin burilish yasadi. Hozirgi ta'lim tizimining bosh maqsadi ham yoshlarni yangicha fikrlashga o'rgatish hisoblanadi. O'z fikrini ravon, go'zal va aniq ifoda etadigan yoshlarni tarbiyalash – dasturning asosiy vasifalaridan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida adabiyotning inson hayotidagi o'rnini shunday ta'riflaydi: "Inson, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa so'z san'at – badiiy adabiyotdir¹". Bundan tashqari yurtboshimizning "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li" asarida maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008 – B. 133

oliy o'quv yurtlarini o'z fanlarining chuqur bilimdoni bo'lgan mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan biri bo'lib maydonga chiqqan. Shuning uchun ta'lim muassasalarini malakali va bilimli kadrlar bilan taminlash eng ustuvor masala qilib belgilangan. Zotan, atoqli adibimiz Cho'lpon ta'kidlaganidek "Adabiyot yashasa – millat yashaydi". Respublikmizda mavjud ta'lim tizimidagi fanlar orasida adabiyot fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, badiiy adabiyot inson ruhiyatiga dastlab ona allasi bilan kirib boradi. Shu tarzda inson umri davomida adabiyotga oshno bo'lib qoladi.

O'zbek adabiyotshunosligida o'tmish mavzusidagi asarlar haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq ijodkorning shaxsiy xotiralari asosida yaratilgan, ayni paytda tarixiy asarlar sirasiga kiritib bo'lmaydigan asarlar ham mavjud. Bunday asarlarning yorqin namunasi sifatida bolalik xotiralari asosida yaratilgan asarlarni aytish mumkin. Bolalikka qaytish motivi asosiy badiiy-estetik vazifa bajaradigan asarlarning tadqiqot obyekti qilib olinganligi ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ushbu muammo adabiyotshunoslikda maxsus o'rganilmagan. Mustaqillik va undan oldingi davrlarda bolalikning badiiy talqinlari bo'yicha maxsus ish qilingan emas. Shu omil bizni bu borada tadqiqot ishi olib borishga undadi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasiga mavzuni ilmiy o'rganishdagi ilk urunish sifatida qarash mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bolalik haqida yozilgan asarlar ustida o'zbek adabiyotida maxsus ishlar qilinmagan. Ishimiz davomida bolalikka bag'ishlangan asarlarni ilmiy jihatdan o'rganib chiqish. O'zbek adabiyotida janr tabiatini, yetakchi taraqqiyot tamoyillarini, badiiy xususiyatlarini, xususan, bolalik xotiralari asosida yozilgan asarlarni tahlil va tadqiq etish bilan belgilanadi. Bolalik mativ qilib olingan asarlarning o'zbek badiiy tafakkuri takomilidagi o'rni va ahamiyati belgilanishi bilan ham xarakterlanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Mavzu yuzasidan olib boriladigan tadqiqot o'zbek adabiyotida retrospeksiya va avtobiografik

usuldan foydalanilgan asarlar hamda mavzuga doir e`lon qilingan tanqidiy maqolalarni o`z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot retrospeksiya va avtobiografik tahlil tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Unda tarixiy-qiyosiy metodlar asosidagi metodlarga tayaniladi. Shuningdek, biz obyekt qilib olingan asarlar yuzasidan fikr yuritgan: M.Qo`shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov, I.G`afurov kabi o`zbek adabiyotshunos olimlarining ilmiy-nazariy mulohazalariga suyanildi. Ishda badiiy tahlil, tarixiy-qiyosiy tadqiq usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ishdan ko`zlangan asosiy maqsad G`.G`ulom, Oybek, A. Qahhor, A. A`zam, A. Obidjon va boshqa bir qator ijodkorlar asarlaridagi bolalik motivining g`oyaviy-estetik funksiyasini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot ishi maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutildi:

- o`zbek adabiyotida bolalik mavzusida yaratilgan asarlardagi obrazlar talqinini o`rganish;
- bolalik motivining asar strukturasidagi vazifalarini belgilash;
- ushbu tipdagi asarlarda qo`llangan badiiy-tasviriy vositalarni tahlil qilish;
- ijodkorning bolalik xotiralarini aks ettirishdagi mahoratini o`rganish;
- yozuvchi ijtimoiy qarashlarini ifoda etishda bolalik xotiralarining ahamiyatini ko`rsatish;
- bolalikka qaytish motivini kompozitsion usul sifatida o`rganish;
- bolalik haqidagi asarlarda retrospektiv usulning asar strukturasidagi o`rnini tahlil qilish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiya ishiga tahlil obyekti sifatida tortilgan adabiy material hamda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan, umumlashtiruvchi fikrlardan XX asr o`zbek adabiyoti tarixini yaratishda, oliy o`quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, o`rta maxsus ta'lim tizimi hamda akademik litseylarning yuqori kurslar talabalari uchun tanlov va ixtisoslik mashg`ulotlari o`tishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot materiallari va ilmiy kuzatishlar adiblarning ijodiga bag'ishlangan risola, qo'llanma hamda monografiyalar yaratishda, adabiy portretga qo'shimchalar kiritishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda amaliy yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. BOLALIK XOTIRALARI VA IJTIMOIIY QARASHLAR

1. “O`tmishdan ertaklar” asarida ijtimoiy qarashlar

Insoniyat qalbida hamisha ruhiy ozuqaga ehtiyoj seziladi. U o`z qalbini tiklash, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch-quvvat manbalarini izlaydi. Tarix, xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma`lumot olish uchungina tarixni o`qimaydi. Bu unga o`tmish haqida tasavvurga ega bo`lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg`otish, xalqni o`zligini anglashga urinish mas`uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo`lib o`z zimmasiga oladi. Nasriy asarlarimizda yozuvchilarimiz bolalikka qaytish xotiralarini asnosida kitobxon ko`z o`ngida tariximizning asl qiyofasi gavdalantirib bera oladi. Shu o`rinda aytish kerakki, o`zbek adiblari ijodida bolalik motivini o`rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi. O`rganilish doirasidagi asarlarni umumiy nomda avtobiografik yoki tarixiy asarlar deb nomlash bir tomonlama deb hisoblagan holda bolalik motivi asosidagi asarlar deb qarashni belgilab oldik.

Inson ulg`ayar ekan, hayotiy tajribaga ega bo`lib boradi. Hayotiy tajriba esa insonni bot-bot ortga qarashga, bosib o`tgan yo`liga boshqa ko`z bilan qarashga undaydi. Bolalikda bo`lib o`tgan voqealarga “bugun”ning nuqtai nazari bilan qaraydi. O`z navbatida ko`ngilga cho`kib qolgan bolalik xotiralarini “bugun”ni qanday tushunishga ta`sir ko`rsatadi. Insonning xayolan bolalikka qaytishiga sog`inch, boy berilgan imkoniyatlarga achinish, o`zligini qayta anglash kabilar turtki bo`ladi.

O`zbek adabiyotida bolalikni eslab yozilgan asarlar talaygina. Abdulla Qahhorning “O`tmishdan ertaklar”, G`afur G`ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik”, Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” kabi asarlarida bolalikka qaytish motivi alohida o`rin tutadi.

A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasi oltmish yoshlar atrofidagi muallifning bolalik xotiralari asosida yaratilgan. Qissada keksalik fasliga kirgan adibning bolalik xotiralari orqali o‘zligini qayta anglashga intilishini ko‘rish mumkin. Bolaligida yuz bergan voqealar tasvirida muallif ko‘ngliga cho‘kib qolgan alam-iztiroblar sezilib turadi. Qissada bolalikda ro‘y bergan ijtimoiy hodisalarga katta A.Qahhor ko‘zi bilan qaraladi va mushohada qilinadi. Yozuvchi tarixga qaytib, xalqning hayoti, turmush-tarzi, taqdiriga e‘tibor qaratadi.

“O‘tmishdan ertaklar”da, aksariyat avtobiografik asarlardagi kabi, badiiy borliq birinchi shaxs – bosh qahramon Abdullaning hikoyasi orqali ro‘yobga chiqadi, boshqacha aytganda, Abdulla Qahhor borliqni idrok etishda kichik Abdullaning taassurotlarini asos qilib oladi. Badiiy tasvir xarakterini hikoyalovchining hikoya qilish maromidagi kayfiyati, ruhiy xolatlari, ichki kechinmalarini belgilaydi. Kichik Abdullaning bolalarga xos dunyoqarashi, tasavvur va taassurotlar olami, ichki dunyosi asar poetikasini o‘rganishda tayanch nuqtalar vazifasini bajaradi, chunki barcha badiiy material uning “qanday ko‘rinish”i orqali gavdalanadi.

Muallif bu davrning eng ayanchli tomonini xalqning savodsizligida ko‘radi. Darhaqiqat, bu paytda yangi usuldagi maktablarga “kun yo‘q”, eski tartibdagi maktablarga esa ehtiyoj sezilmas edi. Sho‘rlik xalqning boshi mehnatdan chiqmas, o‘qib-o‘rgangani esa vaqt topolmas edi. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagi parchaga e‘tibor qaratsak: *“Usta Turdali ketmonni olishda unga har xil belgilar qo‘ysa, dadam po‘lat qalam bilan ketmonning elkasiga egasining otini yozib qo‘yar, dehqon xat bilmasa ham bunga juda qiziqar, xursand bo‘lar edi”*². Mehnatkash xalqning turmush tarzi og‘irligidan maktab yoki madrasaga borib savod chiqargani moddiy sharoiti ko‘tarmas edi. Ayrim mullalarning o‘zi qayta maktab ko‘rishga muhtoj bo‘lib turganda, xalqning bilim darajasi qay ahvolda bo‘lishini tasavvur qilish qiyin emas.

² A. Qahhor. “O‘tmishdan ertaklar”.T.:Sharq-2014.-107 b.

Inson shaxs sifatida dunyoni tanib borar ekan, ilk tasavvurida u qanday namoyon bo'lsa, shunday deb qabul qiladi. Xoh u tabiat hodisasi bo'lsin, xoh inson fe'l-atvori tusida akslansin. Yozuvchining bolaligida huddi shunday hodisa yuz beradiki, bu hol uning hayratiga sabab bo'ladi. Bu hayrat Yaypanlik nonvoy Olim buva nisbatan paydo bo'lgan. Asarda uni, dastavval, mehribon, mo'min, hudojo'y, hattoki, pashshaga ham ozor yetsa joni achishadigan inson qiyofasida gavdalangan. Bir anglashilmochilik tufayli otasi – usta Abduqahhorga nisbatan shunday nafrat paydo bo'ladiki, yosh Abdulla xotirasidan o'chmaydi va shunday eslaydi:

“Cholning bunaqa shovqin solganini emas, balandroq tovush chiqarganini ham hech birimiz eshitmagan edik. Olim buvani ko'rib tanimadim: meni hamisha bolam-bo'tam deb suyardigan, shirinso'z yuzidan tabassum arimaydigan chol qani? Uning o'rnida ko'zlari qinidan chiqay deb turgan, rangi soqolidan ham oqroq, vujudi titrar, uzun soqoli silkinayotgan dahshatli bir odam turardi”³.

Bu parchada bolalarcha munosabatni ko'rish mumkin. Agar katta yoshdagi o'smir bo'lganda ham holatdan kelib chiqib tabiiy deb qabul qilishi mumkin edi. Yo'q u bunday qabul qila olmadi, chunki u bu voqeaga baho berishga aqlan tayyor emas.

A. Qahhorning otasi termirchilik bilan shug'ullangan tirikchilik vajidan turli shahar va qishloqlarga borib, ish qidirib ro'zg'or tebratgan. Chunki bu davrda temirchilarga biron bir joyda muqim ish topilavermas edi. Ish tugagach, tirikchilik uchun boshqa joydan najot izlab, ko'chib yurishga to'g'ri kelgan. Bo'lajak adib oilasi endi bir joyga moslashib, qo'ni-qo'shni bilan aloqa o'rnatganida, ish izlab yoki yashayotgan joy tartiblariga ko'nika olmasdan yana boshqa joyga ko'chishga majbur bo'lgan. Albatta, bu hol bo'lajak yozuvchining ruhiyatiga ta'sir qilmay qolmadi, u ham boshidan og'ir ruhiy iztiroblarni o'tkazdi, kamiga borgan joyida “indamas”, “kelgindi” degan ta'na toshlarini ko'tarib yurishga majbur bo'ldi. O'sha voqealar yosh Abdullaga qattiq ta'sir etganligi aniq. Buni “O'tmishdan ertaklar”dagi mana bu parcha ham yaqqol ko'rsatib turibdi: “*Kelgindi, kelgindi it*”,

³ O'sha asar.-25 b.

degan gapni Olim buvadan eshitganimda, buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman"⁴.

Jonivorlar tabiatida moslashuvchanlik degan tushuncha bor, shu jumladan, inson tabiatida ham. Asar bosh qahramoning ruhiyatida bu holatlar otasining kasbi taqazosi bilan turli shahar va qishloqlarga ko'chib borib yashash natijasida shakllangan. Bu "ko'chmanchilik" oqibatida yashash joyiga nisbatan adabtatsiya shakllanishi qiyin kechgan. Borgan joylarda bolalarga qo'shilib keta olmasdan kamiga "kelgindi" degan ta'na toshlarini ko'tarib yurishga majbur edi. Uni ham bolalarga qo'shilib o'ynagisi kelar edi, lekin mahalliy bolalarning uni qabul qilishi qiyin bo'lgan, albatta. Inson tabiatiga xos bo'lgan xususiyat tabiiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi:

*Men Olim buva mahallasida bolalar qatoriga kirib qolganim uchun dadil borib safga qo'shildim. Qanchadan qancha bolalar qarshi safni buzib bola olib keldi, qanchadan qancha safni buzolmay qolib ketdi. Orziqib kutdim: meni ham "kerak" desa, men ham yugurib borib safni buzsam, bola yetaklab kelsam... Biroq meni hech kim "kerak" demadi*⁵.

Qissadagi voqea-hodisalarni bir umumiy hayot oqimi sifatida harakatlantirishda bolalik xotiralarining ham xizmatlari katta. Ana shunday motivlardan biri Abdullaning qalbida jarohat qoldirishi oqibatida hikoya qilish jarayonidagi kayfiyatini belgilaydigan "kelgindi" tushunchasining badiiy vazifasini kuzatish asarning poetikasi va tahlilini birgalikda tadqiq etishda jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha qissaga Olim buvaning kampiri aytgan matalsimon to'rtlik bilan kirib keladi:

Musofir bo'lmagan kim bor,
Mujovir bo'lmagan kim bor.
Birovning yurtiga borib,
Muhojir bo'lmagan kim bor?

⁴ O'sha asar.-28 b.

⁵ O'sha asar.-27 b.

Kichik Abdulla birinchi marta musofirlikda kishini ezadigan qandaydir xususiyat borligini payqaydi. Chunki kampir bu to`rtlikni ularga achinganidan aytadi, musofirlikda qandaydir baxtsizlik borki, kampir “o`pkasi to`lib taskin bergan bo`ladi”. Biroq hali bu tushuncha bolaning ichki kechinmalarini to`la qamramaydi, u qadar ta`sir qilmaydi. “Bizning musofirchiligimizga rahmi kelsa kerak”, deb tahmin qiladi u. Chunki hali musofirlarga nega rahm qilinishining sabablarini anglamaydi. Shu boisdan bu so`z uning ongiga ozorsiz o`rmaydi, unda kuchliroq taassurot uyg`otmaydi, uning qobig`idan chiqmay psixologik neytral holatda qoladi.

Musofirlik tushunchasi keyinroq, “kelgindi” mazmuniga ko`chganda Abdulla uning daxshatini his qildi:

“Olim buva ertasiga yo`lakda shovqin soldi:

-Ho shayton arava! Ho kelgindi! Buyoqqa chiq! Chiq deyman bu yoqqa!

Dadam cho`chib ayamga qaradi. Uning ham rangi o`chib ketgan edi...”⁶

Abdulla uchun eng kuchli odam dadasi edi. Shunday kishi, uni yelkasida olib yuradigan, qip-qizil cho`g` bo`lib yotgan temirlarga ishlov bera oladigan, choyxonaga chiqsa, odamlar xurmat bilan joy bo`shatadigan baquvvat temirchi otasiki cho`chib, ojiz ayoliga najot so`ragandek qarabdimi, demak, qandaydir qo`rqinchlik hodisa ro`y beribdi. Abdullaning nazarida bu hodisa ularning “kelgindi” ekanligiga bog`liq, chunki hali bola gap nimada ekanligidan bexabar.

Aslida janjalning asli sababi usta Abduqahhorning Olim buvaning qizi etagiga ilashib kelayotgan yantoqni bosganida. Ayol buni boshqacha tushunadi, usta menga tegishmoqchi bo`ldi, deb o`ylab, otasi Olim buvaga arz qiladi. Olim buva haqiqatni surushtirib o`tirmaydi. Shu paytgacha yashirin norozichiligi g`azabga aylanadi-da, haqoratga “kelgindi” so`zi aralashadi. Diqqat qilinsa, musofirlikning bu mojaroga aloqasi yo`q: Olim buva uchun qiziga musofir odam tegishmoqchi bo`ldimi yoki nomahram hamqishlog`imi, baribir, ahloqsizlik. Biroq, Olim buva ustaga boshpana bersa, uning “shayton arava”sidan qo`rqib o`lib qolgan

⁶ O`sha asar.-28 b.

qari opasining xunini talab qilmasa-yu, usta odamgarchiliklar ustiga evaziga uning qiziga ko`z olaytirs! Olim buvaga hammasidan ustaning musofir bo`la turib shunday qilgani alam qilib qoladi: axir kelgindi odam har bir qadamini o`ylab bosmaydimi?!

Ilgari bo`lib o`tgan voqealar chilga qanday fikrlar uyg`otgani va bu fikrlardan “Ho, shayton arava”, “Ho, kelgindi” so`zlarining qay tarzda vujudga kelishi hikoyachiningbir og`iz izohisiz ma`lum bo`ladi. Cholning ikki og`iz so`zida usta Abduqahorning Yaypandagi boshqa odamlardan ikki farqi: qishloqda undan boshqa odamning shayton arava minmasligi va musofirligi anglashilib turadi.

“Dadam ro`para bo`lishi bilan uning og`zidan haqorat ustiga haqorat yog`ildi, ikki gapning birida “kelgindi it” deb qizidan eshitgan gaplarini dadamning yuziga soldi”.

Xarakterlisi shundaki, Abdulla janjalning mohiyatidan ko`ra ko`proq ustma-ust yog`ilayotgan haqoratlarga, shunda ham asosan “kelgindi”ga diqqat qiladi. Xolbuki, mojaroning o`zida, Olim buvaning boshqa ishlarida “kelgindi” so`zidagiga nisbatan haqorat ma`nosi kuchliroq bo`lishi mumkin edi. Abdullaga “kelgindi” iborasi kuchli ta`sir qiladi. Chunki, Abdulla otasini boshqa har qanday janjallarda ishlatiladigan haqoratlarni eshitgan bo`lishi tabiiy. “Kelgindi” deb haqoratlash bilan esa Olim buva ust Abduqahorni juda aniq nishonga olyapti.

“Kelgindi” eng yomon haqorat ekan. Olim buva ikki gapning birida ta`kidlay boshladi. Ayni paytda musofir kishi nima sababdandur oddiy tub joy odamlaridan past turar ekan. Olim buvaning kelgindi it deb ta`kidlanishidan shunday ma`no chiqyapti. Olim buva bir kambag`al sifatida, ijtimoiy, ahloqiy tomondan uncha farq qilmasa-da, musofir bo`lmagani uchun undan ustun turar ekan. Shu sababli u ustani bemalol haqorat qilishi, hatto unga qo`l ko`tarishi ham mumkin ekan, ustaning esa javob qaytarishga yuragi betlamas, balki unga haqqi ham yo`q ekan. Birgina Olim buva emas, boshqalar ham shu fikrda. Musofir odam, yaxshi-yomonligidan qat`iy nazar, ularga begona, shu sababli ustaning yonini

olish, gap aslida nimada ekanligini aniqlash to'planganlarning ham hayoliga kelmaydi:

“Hech kim Olim buvaga taskin-tasalli bermasdi, aksincha, kimdir baqirib:

- Shayton arava minadigan odamdan yaxshilik chiqmaydi, ur bo'yniga, dedi”⁷.

“Ur bo'yniga” iborasi bejiz qo'llanmayapti, Olim buva ustani itga teng qilyapti, itni urush mumkin, usta esa boshini quyi solib turibdi, agar ko'kragini ko'tarib mag'rur turganida “Sol yuziga” deyilardi. Shu o'rinda Abdulla Qahhorni har bir so'zning so'nggi chegarasigacha o'rinli qo'llab, plastik proza yaratish mahoratini yana bir karra ta'kidlab o'tish o'rinli. Mojoro tasviri davomida hikoyachi o'z ko'nglida kechayotgan ruhiy jarayonni mutlaqo bayon qilmaydi. “Olim buvani ko'rib tanimadim”, degan jumalardagina u o'zini eslatib o'tadi, xalos. U faqat ko'z o'ngida kechayotgan xodisani kuzatadi va shu kuzatishlarni hikoya qiladi. Ammo hikoyadagi ruhiy ohang, asabiy keskinlik, hikoyachining nimalarga diqqat qilishi va ularni qanday holat, kayfiyatda so'zlab berishiga e'tibor berilsa, satrlararo ifoda etilgan san'atkorona psixologik tahlilni payqash qiyin emas. Har bir so'z, har bir detal bola qalbidagi tuyg'ularni yuzaga olib chiqadi, umuman tasvir uning ichki kechinmalari natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Abdullaning ko'nglida tahqirlanish tuyg'usi shunga mos ravishda tobora kuchayadi. Tasvir ham hikoyachi ichki kechinmalariga munosib holatda keskinlasha boradi, uning ruhiyatidagi taranglikni o'ziga singdirib yuboradi.

Bu parchada “kelgindi” tushunchasi ma'no jihatdan to'la shakllanadi va keying voqealar davomida hikoyachi qalbidagi ruhiy jarayon yo'nalishini belgilab beruvchi kuchga aylanadi. Lekin bu tushuncha Abdullaga ohirgi, xal qiluvchi zarbasini bermaydi, u faqat o'z kuchini namoyish qiladi va uning qalbida o'ziga nisbatan javob sifatidagi tuyg'ular isyonini qo'zg'atmaydi...

Quyidagi voqea Olim buva bilan usta Abduqahhor o'rtasidagi anglashilmovchilik tufayli kelib chiqqan manzarani psixologik nuqtaiy nazardan

⁷ O'sha asar.-28 b.

ham, postik qurulish jihatidan ham to'ldiradi, unga mantiqan hamohang gavdalantiriladi.

“... bola meni payqab oldimga keldi, menga boshdan oyoq razm soldi-yu, birdan:

-Kelgindi, deb urgani qo'l ko'tardi.

-O'zing kelgindisan!- dedim ehtiyotdan orqaga kechinib.

Bola bir irg'ib mening kallamga qo'yib yubordi. Men javob qilolmadim-qarasam, boshqa bolalar ham urmoqchi bo'lib, ilonni ko'rgan chumchuday atrofimda chug'urlashib turubdi. Shu payt bizni kuzatib turgan kichkina salla, uzun malla to'nli novcha bir chol:

Qo'yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa o'zi bo'libdimi, xudo qilgan dedi. Bolalar darrov tarqalishdi. “Kelgindi, kelgindi it” degan gapni Olim buvadan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi. Nima sababli cholning Abdullani himoya qilib aytgan gapi unga bunchalar og'ir botdi, nega u bu gapdan odam hazar qiladigan ma'no angladi. Bunday ma'no Abdulla oldinroq eshitgan boshqa bir gapdan kelib chiqadi. Usta Abduqahhor bir kuni pashshalarga qarshi achchiq tugma qalampir tutatganda, Olim buva ranjib shunday deydi: “Usta, xudoning mahluqiga ozor bermang, pashshani xudo yaratgan, jon bergan”. Abdullaning jon-jonidan o'tib ketganiga sabab-insonga emas, goyo mahluqqa ozor berilayotgandek edi. Bu gap faqat Abdullaga emas, balki uni urmoqchi bo'lib turgan bolalarga ham shunga o'xshash ta'sir qiladi, shuning uchun ham ular darrov tarqalishadi. Shu munosabat bilan “kelgindi” degan haqorat ta'sirida vujudga keladigan psixologik reaksiya avj nuqtasiga ko'tariladi. Hikoyachi dilidagi borliqdan zavqlanish, bolalarga xos ko'tarinki tuyg'ularini bo'gib turadi. Abdullaning tabiatidagi bir xislat-o'z dardini boshqalarga oshkor qilmasdik, ruhiy qiynoqlarga jim turib dosh berish u voqeadan so'ng uning yoshidagi bola uchun birlik qiladigan matonatli sukutka aylanadi. Abdulla bu gaplarni hech kimga aytmaydi, hammasini “ichiga soladi”. Ayni paytda uning hikoyasida uzoq vaqtdan

beri to'lishib kelayotgan nohaqlikka, kamsitilishga qarshi ruhiy isyon tobora sezila boradi, uning "indamas" bo'lib qolishi ham tahqirlashga qarshi osoyishda isyon edi. Bolaga "O'zing kelgindisan", deb javob qaytarishi ham buning birinchi alomati edi. "Kelgindi" so'zining tavqi la'nat tamg'asi sifatida tushungan Abdullaning ko'nglida shu paytgacha pinhon bo'lib kelgan ezgu-istak-hamma qatori teng huquqli bo'lish, odamlarga tenglashish, ular bilan o'z qayg'usi va shodligini baham ko'rish orzusi nishona beradi:

"Orzuqib kutdim, meni ham "kerak" desa, men ham yugurib borib safi buzsam, bola etaklab kelsam..."

Shu voqea jarayonida "kelgindi" so'zining Abdullada qoldirgan taassuroti tengsizlik oqibatida insonning eshitilishi, haq-huquqlarining poymol etilishi, tahqirlanishiga qarshi isyonni ifodalovchi muhim psixologik motivga aylanadi va uning voqea-hodisalarga qaysi pozitsitadan yondashishi, ularni qay tarzda hikoya qilishida ahamiyati katta bo'ladi.

Bundan so'ng "kelgindi" so'zining ma'nosiga nisbatan hikoyachi qalbidan bu so'zdan qoladigan jarohat kattalasha boradi, tez-tez yangilanadi: "Imonsiz kampir ukam O'lmasoy ikkimizni ham qo'shig'iga qo'shdi: Sendan bo'lgan bola nima bo'lar edi, itdan bo'lgan qurbonlikka yaramaydi..."- dedi. Boynimga osilgan tavqi la'nat – "kelgindi", "ko'chmanchi", "musofir" degan so'zlar ham bir bo'ldi-yu, kampirning bu gapi ham bir bo'ldi".

"Men kelganimdan beri bolalarga qo'shilmaganim uchun o'zim yakka o'ynab ketdim, tuproq ko'chalarni, qumloq anhor bo'ylarini kezdim, kimsasiz bir boqqa kirib yarim do'ppi javpazak pesa terib chiqdim, anhor ko'prigidan oyog'imni osiltirib o'tirib, pesa yeb o'tirganimdan birdan ko'nglim to'ldi-yu, ko'kragimdan yig'i o'rniga bir kuy otilib chiqdi, kuy ko'kragimdan o'zining so'zlarini yetaklab chiqdi: qayerga borsam kelgindiman... bolalar o'yinga qo'shmaydi..."

Shu o'rinda har ikki tomon-"kelgindi" so'zining bolaga nisbatan ezuvchi ta'siri unga javoban hikoyachi qalbidagi psixologik reaksiya – ruhiy g'alayon to'la

namoyon bo`ladi. “Kelgindi so`zi va u uyg`otgan taassurot psixologik motiv sifatidagi vazifasini asosan bajaradi. Keyingi voqealarni hikoya qilishga bu tushuncha Abdullaning his-tuyg`ulariga hukumronlik qilishini asosan to`xtatadi. Abdulla kelgindi so`zining eshitganda ilgorigidek qattiq azoblanmaydi, unga nisbatan bir qadar xotirjam munosabatda bo`ladi. Shu sababli uning hikoyasi birmuncha osoyishda kechib, tasvir harakteri o`zgaradi, voqea-hodisalar ko`lami kengayib, tobora ijtimoiy tus olib boradi. Hayot munosabatini toraytirib, tasavvur va taassurotlarini siqib, kechinmalari ustidan toshdek bosib turgan tuyg`udan xalos bo`lgach, hikoyachi ko`nglidagi ruhiy jarayon erkinlashadi va bu holat o`z navbatida uning hikoyasida ham o`zgarish yasaydi.

Muallif bu davrning eng ayanchli tomonini xalqning savodsizligida ko`radi. Darhaqiqat, bu paytda yangi usuldagi maktablarga “kun yo`q”, eski tartibdagi maktablarga esa ehtiyoj sezilmas edi. Sho`rlik xalqning boshi mehnatdan chiqmas, o`qib-o`rgangani esa vaqt topolmas edi. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagi parchaga e`tibor qaratsak: *“Usta Turdali ketmonni olishda unga har xil belgilar qo`ysa, dadam po`lat qalam bilan ketmonning elkasiga egasining otini yozib qo`yar, dehqon xat bilmasa ham bunga juda qiziqar, xursand bo`lar edi”*⁸. Mehnatkash xalqning turmush tarzi og`irligidan maktab yoki madrasaga borib savod chiqargani moddiy sharoiti ko`tarmas edi. Ayrim mullalarning o`zi qayta maktab ko`rishga muhtoj bo`lib turganda, xalqning bilim darajasi qay ahvolda bo`lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Inson shaxs sifatida dunyoni tanib borar ekan, ilk tasavvurida u qanday namoyon bo`lsa, shunday deb qabul qiladi. Xoh u tabiat hodisasi bo`lsin, xoh inson fe`l-atvori tusida akslansin. Yozuvchining bolaligida huddi shunday hodisa yuz beradiki, bu hol uning hayratiga sabab bo`ladi. Bu hayrat Yaypanlik nonvoy Olim buvaga nisbatan paydo bo`lgan. Asarda uni, dastavval, mehribon, mo`min, hudojo`y, hattoki, pashshaga ham ozor yetsa joni achishadigan inson qiyofasida gavdalangan. Bir anglashilmochilik tufayli otasi – usta Abduqahhorga nisbatan

⁸ A. Qahhor. “O`tmishdan ertaklar”. T.: Sharq-2014.-107 b.

shunday nafrat paydo bo`ladiki, yosh Abdulla xotirasidan o`chmaydi va shunday eslaydi:

“Cholning bunaqa shovqin solganini emas, balandroq tovush chiqarganini ham hech birimiz eshitmagan edik. Olim buvani ko`rib tanimadim: meni hamisha bolam-bo`tam deb suyardigan, shirinso`z yuzidan tabassum arimaydigan chol qani?Uning o`rnida ko`zlari qinidan chiqay deb turgan, rangi soqolidan ham oqroq, vujudi titrar, uzun soqoli silkinayotgan dahshatli bir odam turardi ”⁹.

Bu parchada bolalarcha munosabatni ko`rish mumkin. Agar katta yoshdagi o`smir bo`lganda ham holatdan kelib chiqib tabiiy deb qabul qilishi mumkin edi. Yo`q u bunday qabul qila olmadi, chunki u bu voqeaga baho berishga aqlan tayyor emas.

A.Qahhorning otasi termirchilik bilan shug`ullangan tirikchilik vajidan turli shahar va qishloqlarga borib, ish qidirib ro`zg`or tebratgan. Chunki bu davrda temirchilarga biron bir joyda muqim ish topilavermas edi. Ish tugagach. tirikchilik uchun boshqa joydan najot izlab, ko`chib yurishga to`g`ri kelgan. Bo`lajak adib oilasi endi bir joyga moslashib, qo`ni-qo`shni bilan aloqa o`rnatganida, ish izlab yoki yashayotgan joy tartiblariga ko`nika olmasdan yana boshqa joyga ko`chishga majbur bo`lgan. Albatta, bu hol bo`lajak yozuvchining ruhiyatiga ta`sir qilmay qolmadi, u ham boshidan og`ir ruhiy iztiroblarni o`tkazdi, kamiga borgan joyida *“indamas”, “kelgindi”* degan ta`na toshlarini ko`tarib yurishga majbur bo`ldi. O`sha voqealar yosh Abdullaga qattiq ta`sir etganligi aniq. Buni *“O`tmishdan ertaklar”*dagi mana bu parcha ham yaqqol ko`rsatib turibdi: *“Kelgindi, kelgindi it”, degan gapni Olim buvadan eshitganimda, buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma`nosi ham borligini bilmagan ekanman ”¹⁰.*

Jonivorlar tabiatida moslashuvchanlik degan tushuncha bor, shu jumladan, inson tabiatida ham. Asar bosh qahramoning ruhiyatida bu holatlar otasining kasbi taqazosi bilan turli shahar va qishloqlarga ko`chib borib yashashi natijasida

⁹ O`sha asar.-25 b.

¹⁰ O`sha asar.-28 b.

shakllangan. Bu “ko`chmanchilik” oqibatida yashash joyiga nisbatan adabtatsiya shakllanishi qiyin kechgan. Borgan joylarda bolalarga qo`shilib keta olmasdan kamiga “kelgindi” degan ta`na toshlarini ko`tarib yurishga majbur edi. Uni ham bolalarga qo`shilib o`ynagisi kelar edi, lekin mahalliy bolalarning uni qabul qilishi qiyin bo`lgan, albatta. Inson tabiatiga xos bo`lgan xususiyat tabiiy jarayon sifatida namoyon bo`ladi:

Men Olim buva mahallasida bolalar qatoriga kirib qolganim uchun dadil borib safga qo`shildim. Qanchadan qancha bolalar qarshi safni buzib bola olib keldi, qanchadan qancha safni buzolmay qolib ketdi. Orziqib kutdim: meni ham “kerak” desa, men ham yugurib borib safni buzsam, bola yetaklab kelsam... Biroq meni hech kim “kerak” demadi¹¹.

“Kerak” so`zini “Kelgindi” so`ziga ziddi sifatida qabul qilib, ma`noviy antonim deb, qabul qilsa bo`ladi. Bosh qahramonning ruhiyatidan kelib chiqib shunday xulosa to`g`riroq. Bu parchada bolaning boshqa bolalar kabi teng bo`lishni xohlayotganini ko`rish mumkin. “Kerak” so`ziga boshqacha ma`no yuklatilishi bejiz emas. Chunki bu so`zni eshitishni bola uzoq kutdi, boshidan shuncha o`tgan qora kunlarning badaliga aytiladigan madhiyadek, ammo bu so`z hech kimning og`zidan chiqmadi. Butun vujudi quloq bo`lib bu so`zni eshitishni xohladiki, “kelgindi”, “indamas” kabi ta`na toshlarini yuvib yuborardi. Unday bo`lmadi, uning psixologiyasida yana “kerak emas”lik qayta tiklandi. Bolaning undan oldingi: *“Men Olim buva mahallasida bolalar qatoriga kirib qolganim uchun dadil borib safga qo`shildim”* dadilligiga ham putur yetkazdiki, undan keyin ham qishloq bolalariga qo`shilolmay qoldi.

Ayang tuzalib qoldi-ku, xotinlarni ichida nima qilib o`tiribsan, ko`chaga chiqsang bo`lmaydimi?-dedi. Men indamadim, bollalar meni uradi, kelgindimiz deya ololmadim.¹²

¹¹ O`sha asar.-27 b.

¹² O`sha asar.-29 b.

Yuqoridagi parcha undan oldingisining mantiqiy davomi sifatida keltirilyapti. Eʼtibor berilsa, Abdulla Qahhor yosh Abdullaning ruhiyatidagi oʻzgarishlarni darajama-daraja koʻrsatmoqda. Avvaliga “kelgindi” degan soʻzni haqorat deb bildi, undan soʻng hazar qilish maʼnosida tushundi, bolalarga qoʻshila olmadi, hattoki koʻchaga ham chiqa olmay qoldi. Bora – bora bu soʻzni aytishga uyalish darajasiga bordi. Asarni oʻqish davomida “kelgindi” degan dashnomga koʻnikib qolgandek ham koʻrinadi.

Kunlardan birida usta Abduqahhor uyiga “Zinger” tikuv mashinasini olib kelgach, ularning oilasi ogʻizga tushib holat ancha yengillashgandek edi. Bolalarning Abdullaga nisbatan qarashlari ham oʻzgardi. Bu holat quyidagi parchada ham koʻrishimiz mumkin:

Atrofimda bolalar chugʻurlar, kelgindi ekanligimni ham unutib, hammasi: “Zingeringni bitta koʻrsat”, -deb yalinar edi¹³.

Voqealar garchi yosh Abdulla nigohi orqali tasvirlansa-da, qissada katta hayotiy tajriba hamda millat taqdiri haqida muayyan ijtimoiy-siyosiy qarashlarga ega insonning nuqtai nazari ham aks etgan. Bolalikda yaxshi idrok etishga, ijtimoiy, maʼnaviy-axloqiy sabablarini tushunishga ulgurmagan voqealarini muallif endilikda oʻz qalbi va ongi prizmasidan qayta oʻtkazib, tahlil qilib koʻradi, voqelikka faol ijtimoiy pozitsiyadan turib baho beradi. Qissada bolalik xotiralari orqali muallifning ijtimoiy qarashlarini yaxshi ifodalab bergan epizodlardan biri “Teshiktosh” hikoyasidir. Ushbu epizoddagi Babarning ayanchli taqdiri hech kimni befarq qoldirmaydi.

Bu davr va tuzum holatidan kelib chiqib, adib insonning qadri yoʻqligi, buyumga qaralgandek qaralganligiga diqqatni tortadi. “Otqorovul Babarni gapga solib koʻribdi, uning begunoh ekanini bilgach, qoʻyib yuborgani ijozat soʻrab xuftondan keyin aminning uyiga boribdi. Amin mingboshinikiga ketgan ekan. Mingboshinikiga shahardan mehmon kelgan, ziyofat avjida ekan. Otqorovul mehmonxonadagi xizmatkorlar bilan oʻtirib qolibdi. Ziyofat saharga yaqin tugabdi.

¹³ Oʻsha asar.-31 b.

Otqorovul yo‘lda Babar to‘g‘risida gapirgan ekan, amin “Iya esdan chiqibdi-ku”, deb jadallabdi”. Bu darajadagi e’tiborsizlikni, insonning taqdiriga befarqlikni hech bir jihatdan oqlab bo‘lmas. Har qanday jamiyatda va har qanday zamonda inson qadri, uning manfaatlari yuqori turmas ekan, ana shu xalqning tanazzulga yuz tutishi shubhasiz.

Muallif o‘sha davr amaldorlarining inson taqdiriga befarqligiga e’tibor qaratibgina qolmay, insonning o‘z qadr-qimmatiga munosabatning pastligini ham oqlamaydi. *“Kelib gugurt chaqib qarashsa, Babar dildirab, burchakka tiqilib o‘tirgan emish. Uning ahvolini ko‘rib amin “ayb o‘zingda” deganday shovqin solibdi:*

- Eshik qulf emas-ku, chiqib ketavermadingmi?

Babar tishi tishiga tegmay zo‘rg‘a:

- O‘zingiz qamab qo‘ydingiz-ku, podsholik odamisiz, - debdi.”

Babarning holati me’yordan o‘ta ortiq mutelikdan boshqa narsa emas. “Teshiktosh” bobida tasvirlangan voqea orqali yozuvchi kitobxonni chirkin jamiyatni yorib chiqish uchun o‘zida kuch topolmagani tufayli ham mazlum xalq uzoq yillar azob-uqubatdan boshi chiqib kelmay yashadi, degan xulosaga olib keladi.

A.Qahhorning otasi termirchilik bilan shug‘ullangan tirikchilik vajidan turli shahar va qishloqlarga borib, ish qidirib ro‘zg‘or tebratgan. Chunki bu davrda temirchilarga biron bir joyda muqim ish topilavermas edi. Ish tugagach, tirikchilik uchun boshqa joydan najot izlab, ko‘chib yurishga to‘g‘ri kelgan. Bo‘lajak adib oilasi endi bir joyga moslashib, qo‘ni-qo‘shni bilan aloqa o‘rnatganida, ish izlab yoki yashayotgan joy tartiblariga ko‘nika olmasdan yana boshqa joyga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Albatta, bu hol bo‘lajak yozuvchining ruhiyatiga ta’sir qilmay qolmadi, u ham boshidan og‘ir ruhiy iztiroblarni o‘tkazdi, kamiga borgan joyida “indamas”, “kelgindi” degan ta’na toshlarini ko‘tarib yurishga majbur bo‘ldi. O‘sha voqealar yosh Abdullaga qattiq ta’sir etganligi aniq. Buni “O‘tmishdan ertaklar”dagi mana bu parcha ham yaqqol ko‘rsatib turibdi. “Kelgindi, kelgindi it”,

degan gapni Olim buvadan eshitganimda, buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi".

Omma shu darajaga kelib qolganki, hatto yangiliklarni qabul qilishga tayyor emas edi. Bu yangiliklarga katta hayrat bilan qaralgan. Insonning qo'l mehnatini engillashtiradigan buyumlarga munosabatda ham kishilar ko'r-ko'rona yondashishgan. Bu paytga jahonda ne-ne kashfiyotlar amalga oshmagan deysiz. Abduqahhor oilasida paydo bo'lgan "Zinger" tikuv mashinasi mahalliy aholi uchun aqlga sig'mas mo'jiza bo'lib tuyuldi. Undan o'zlariga kiyim-kechaklar tikib xursandchiligi ichiga sig'mayotgan, hamma ularga havas bilan qarayotgan edi. Bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmadi: *Osh ustida "Zinger"dan gap ochilganda mahallamizning imomi "Zinger"tikkan kiyim namozlikka yaramaydi, debdi. Mana shu fatvodan so'ng, eski qopga solib, uni yashirishga majbur bo'ldi.* Bundan ko'rinadiki, din peshvolarining tamaddun borasidagi saviyasi oddiy xalqnikidan u qadar ustun bo'lmagan.

Asarni o'qish jarayonida o'sha davrning yana bir katta fojeasiga guvoh bo'lamiz. Hayot nimaligini bilmasdan turib, yosh o'lib ketgan Savrinisoning taqdiri kitobxonni befarq qoldirmaydi. Abdurahmon qizini o'zining shogirdiga turmushga bermoqchi. Qizning yigitda ko'ngli bormi-yo'qmi, bu bilan hech kimning ishi yo'q. Hatto to'yi bo'layotganidan qizning o'zi bexabar, bu xabarni u to'y taraddudlaridan bilib qoladi. Qiz hali ancha yosh, bolalik odatlarini tashlamagan edi. To'y bo'lishini istamagan Savrinisoning temiryo'l bekatidagi bolalarcha qilgan orzularini ko'rib unga rahmingiz keladi. Alal-oqibat, Savriniso otasi tomonidan shavqatsizlarcha o'ldiriladi. Bu qotillik faqat ota tomonidan amalga oshirilgani yo'q, bu qotillikni jamiyat, tuzim amalga oshirgandek ko'rinadi: "Amakim dahshat ichida o'zini uyga urgan Savrinisoning ketidan otilib kirdi. Savrinisoning avval "Dadajon!" degan chinqirig'i, keyin mushukday vig'illagani, nihoyat, ingragani eshitildi-yu, jim bo'lib qoldi... Savriniso o'sal shekilli, dadam chuqur xo'rsinib ayamga: "Bechora tugab boryapti, ko'zlarini ko'rdingmi,

dunyoga to‘ymayotibdi”, dedi. Savriniso o‘sha mahalda uzilgan ekan”. Savrinisoning hech qanday insoniy huquqlari hisobga olinmaydi. Qiz bechora umid ko‘zlari bilan amakisiga qaraydi. Ammo uning taqdiri hal bo‘lib bo‘lgan edi. Bu voqeani aybdori izlanmaydi va jazolanmaydi, yopiqlik qozon yopiqligicha qolavaradi. Albatta, bu voqea insonni larzaga solmay qo‘ymaydi.

Adib hayotni real aks ettirib, tariximizni ko‘rsatish orqali xatolarni takrorlamaslikka undaydi, shu bilan birga inson qadri ustun turishi kerakligini uqdirishga intiladi. Xalqimizning bu darajaga tushib qolishining asl sabablari jaholatning oqibatlari ekanini ko‘rsatib berdi.

Hozirgi o‘zbek adabiyoti o‘ziga xos an‘ana va badiiy mezonlar asosida shakllangan. Hozirgi o‘zbek nasri taraqqiyotida jiddiy o‘sish-o‘zgarish yuz berdi. Jahon adabiyotiga xos ilg‘or ijodiy an‘analar bir qator yangicha talqin uslubi va yangicha shakliy ko‘rinishlar bilan kirib kelmoqda.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi bolalikning badiiy talqinlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asarida xalqning tarixini ro‘y-rost ko‘rsatib berish orqali muallif “kecha” va “bugun”ni solishtirib, tarixiy haqiqatlatni oshkor qilgan. Asarda dunyoni qayta anglash jarayonida ham muhim o‘rin tutadi. Asardagi dastlabki voqealariga yosh Abdullaning bolalarcha sodda qarashlari beriladi, qissa davomida esa, keksalik qiyofasiga kirgan, hayotni keng o‘ylovchi katta Abdulla Qahhorning fikrlari ko‘rinadi. “O‘tmishdan ertaklar” asarida bola nigohi orqali jamiyatning ijtimoiy hodisalariga baxo beriladi. Oilasini ko‘chib yurishi va bu orqali “kelgindi”ga aylanishi atrofidagi voqealar uning qalbida o‘chmas iz qoldirgan. Ayniqsa, mehribon, mo‘min Olim buvaning otasi usta Abduqahhorga bo‘lgan munosabati, hayot neligini bilmasdan o‘lib ketgan Savriniso, xotinini tirik qolishi uchun har ishga tayyor Babar kabi xalqning tipik vakillarining ayanchli taqdiri ijodkorning keksaygan damlarida ham kecha bo‘lib o‘tgan voqeadek taassurot qoldiradi. Bu asar yozuvchining bolalik xotiralari

ijtimoiy hayotni qayta tahrirdan o'tkazgan holda, o'zining qarashidagi baxoni bergan.

1.2. “Shum bola” asarida yozuvchining bolalik xotiralari

Gʻafur Gʻulom oʻzbek adabiyotini sheʼriy asarlar bilan qay darajada boyitgan boʻlsa, nasriy asarlar bilan ham undan kam boʻlmagan miqyosda boyitgan yozuvchidir. Ishimiz doirasida biz “Shum bola” qissasidagi ijtimoiy hodisalarga bolaning qarashlarini tahlil qilishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻyganmiz.

Qissada avtobiografik unsurlar mavjud. Ayniqsa, voqealarning birinchi shaxs-“men” tilidan olib borilishi janrning bu unurni kuchaytiradi. Bundan tashqari, Shum bolaning tugʻilib oʻsgan joyi sifatida yozuvchining oʻz mahallasi koʻrsatilishi; Shum bola doʻstlarining ismi Omon va Yoʻldosh boʻlsa, bolalikda yozuvchining ham huddi shunday ismli oʻrtoqlari boʻlganliklarini koʻrsatish mumkin: *“Mening oʻrtoqlarim: Oman, It Obid, Bit Obid, Turobboy, Husni, Solih, Abdulla, Poʻlatxoʻja, Miraziz va boshqalar”*¹⁴

Biroq, qissani avtobiografik asar deb ham boʻlmaydi. Qissa voqealari boshidan oxirigacha muallifning oʻzi tomonidan bayon qilinayotgandek “men” tilidan olib berilishi bir badiiy usul, xolos. “Shum bola” qissasi, mohiyat eʼtibori bilan birinchi jahon urushi arafasidagi oʻzbek xalqi hayoti, undagi qiyinchilik va mashshaqatlar bola koʻzi va nigohi orqali, sarguzashtnamo hangomalar asosida va yumorga yoʻgʻrilgan bir uslubda badiiy gavdalantirilgan sarguzash asardir.

Eshon oyi degan xotin ham jinni edi. U qirq-qirq besh yoshlar chamasidagi qorachadan kelgan, xushqomat, qalamqosh bir xotin edi. Bu xotin aslida qalandarxonalik Mittixon toʻram degan eshonning xotini boʻlib, eshon shu xotinning singlisi bilan oʻynashib turganida ustidan chiqib qolib, jinni boʻlib qolgan ekan.

Asar voqealari tasvirlangan davrda, ijodkor ham alohida taʼkidlaydi: *“Toshkenda shunaqa ham jinni koʻp ediki, sanab sanogʻiga yetolmaysiz”*¹⁵, -deb asrda aytib ketgan. Undan oldingi parchada ham bu “jinnilik”

¹⁴ Gʻ.Gʻulom. Shum bola.-Toshkent: Gʻ.Gʻulom,2012.-158 b.

¹⁵ Oʻsha asar.-158 b.

voqeasini bayon qilgan. Eshonlar o`sha davrdagi aholini oldi qatlami hisoblangan bir davr edi. Shularki, mana shunday jirkanch ishlarni qilar ekan, boshqalardan nima kutish mumkin, axir. Xalq boshida ozodlik, erk kabi ustuvor masalalari turganda bu va bunga o`xshash voqealarni hazm qilish mumkin emas. Ko`pchilik ishi kasotga uchrab, hayot qiyinchiliklarini yenga olmagan. Bu davr texnika, ilmfan hamda sanoatning yangi bir bosqichi sifatida tarixga kirgan. Turkistondagi ishlab chiqarish asosan aholining qo`l mehnatiga asoslangan, aholining aksariyat qismi xunarmandchilik kasbi orqali oilaning qora qozonini qaynatgan. Hayotning deyarli barcha jabhalari sanoatlashgach, aholining ko`p qismi o`z ishini yo`qota boshladi. Bu voqea ayrimlarga juda qattiq ta`sir o`tkazganki, bu ta`sirlarni “Shum bola” asarida ham ko`ramiz: *”U ilgari bo`zchi ekan, chit ko`payib ketganidan keyin bo`z o`tmay qolib, bozori kasotga uchrab, bola-chaqasini boqolmay, jinni bo`lib qolibdi, deb eshitganman.”*¹⁶ Yuqoridagi davr xususiyatlarini asarda yozuvchi sanab o`tib, bolalikda ko`rganlarini yana bir qayta eslab, katta G`afur G`ulomning aql prizmasidan o`tadi.

Har bir inson o`zining yashash sharoiti yaxshi bo`lishini xohlaydi. Ba`zan bu ko`z-ko`z qilishga ehtiyoj tug`uladi, ayniqsa bu bolalar harakterida ko`proq namoyon bo`ladi. Shum bola harakterida ham huddi shunday holat bo`lib o`tadi:

O`rtoqlaringa yaxshi ko`rinish uchun, rasamadda ko`rsatilmagan bo`lsa ham, yog` yoniga tuxumni ham qo`shib olib borishni o`zimga ma`qul qilgan edim.

Bu voqea asar qahramonining o`ziga xos bo`lgan xarakterini ochib berish vazifasini bajaradi. Albatta, bosh qahramonning tuxumni ham qo`shib o`zining sharoiti haqida axborot berish bilan birga harakteridagi quvlikni ko`rish mumkin. Bu holatga bir tomonlama qarab bo`lmaydi. Yana shunisi ham borki, ikkinchi jahon urushi davrida, har bir oila boshidan juda og`ir kunlarni kechirayotgan bir paytda ukalarini risqini o`g`irinch xalfanasiga olib chiqib ketdi. Buning natijasi o`laroq o`sha tuxum manzilga yetmasdan sinadi va hech kimga nasib qilmasdan sinadi. Tuxum o`g`irlash “operatsiyasi” yozuvchi tomonidan kulgilik holatda aks

¹⁶ O`sha asar.-158 b.

ettirib, G'.G'ulomning chettan turib bu holatga baxo berayotgandek. Bu jarayonning kulgililik jihatidan ko`ra tarbiyaviylik tomoni ko`proq.

Xalfana qilamiz deb o`margan o`g`irligim ochilib qolganligidan, bir chekkasi qo`rqish va bir chekkasi uy ichidagilardan uyalganimdan, oshxonadan chiqib ko`chaga qochgan edim. Yog` erib oqqan, tuxum singan bo`lganidan, xalfanachi o`rtoqlarimning oldiga borishdan ma`no chiqmas edi. Kechqurun uyga qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?!¹⁷

Shum bolaning qilayotgan bu xatti- harakatlari kamchilik sifatida ko`rinmaydi, balki unga yarashib turgan o`ziga xos jihat bo`lib ko`rinadi. U yosh bo`lsa ham, kattalardek o`ylaydi va mushohada qiladi: *Yog` erib oqqan, tuxum singan bo`lganidan, xalfanachi o`rtoqlarimning oldiga borishdan ma`no chiqmas edi. Kechqurun uyga qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?!¹⁸*

Asarni shu joyidan boshlab Shum bolaning ahloqida va ruhiyatida o`zgarishlar yuz bera boshlaydi. Aybdorlik hissi bor ekan, demak odamning ko`ngli uyg`oq. U faqat o`g`irlik qilgani uchun emas, do`stlarini oldiga quruq borishga uyalganidan emas, balki zamonning o`zi uni uydan bosh olib ketishiga sababkor. Bo`lmasa, u ham bolalardek bola holatda katta bo`lgisi, o`ynab-kulgisi kelmaydi deb o`ylaysizmi? Bu yoshdagi bolalarda yana bir narsani xohlaydiki, bu – ishonch. Ishonch har qanday yoshdagi insonga dadillik bag`ishlaydi. Insonga ishonch bildirilsa, undan maslahat so`ralsa, jamiyatda o`zining o`rni borligiga va kimgadur keraklididan quvonadi. Shum bolaga nisbatan bunday munosabat ammasining uyuga borganida yuz beradi.

Qushlarning ovqatidan xabar olib tur, ochiqib qolmasin, - deb tayinladi. Men juda quvondim – mana endi o`sib ham qoldim, yoshim o`n tortga kirdim, odamlar menga ishonadigan bo`lib qoldi, deb ich-ichimdan sevindim¹⁹.

¹⁷ O`sha asar.-186 b.

¹⁸ O`sha asar.-188 b.

¹⁹ O`sha asar.-201 b.

Insondagi moddiy qashshoqlik, ba`zan ma`naviy qashshoqlik tomon yetaklashi mumkin. Birinchi jahon urushi davrida xalqning ma`vaiy qiyofasi ham yo`qchilik ta`sirida putur yetadi. Bir- birini aldashlar, o`g`rilik va yana shunga o`xshash salbiy jihatlar ko`z yumib bo`lmas haqiqat. Ko`pchilik nazlida iymonli bo`lib ko`rinadigan Eshonlarning bunday jihatlari ko`zga yaqqol ko`rinmay qolmas:

Boshqacharoq yo`l bilan bo`lsa ham tirikchilikning payida bo`lsang edi, o`g`lim... - Men avval turli xayollarga bordim: Ya`ni “boshqacharoq yo`l” nima bo`ldi ekan?! Eshon u yoqdan bu yoqdan aylantirib, shama qilib tushuntirdi. Shundan keyingina men bu “boshqacha yo`l”ning faxmiga yetdim.

Bu “boshqacha yo`l”ni Qoravoy kattaroq yoshdagi bola bo`lganda darrov tushungan bo`lar edi, *Eshonni u yoqdan bu yoqdan aylantirib gapirishiga hojat bo`lmas edi.* Xalqning ma`naviy jihatdan oldi bo`lib turgan Eshon lar shu darajadagi qabih ishlarga yosh go`daklarni boshlab turganda, boshqalardan nima kutish mumkin. Quyidagi parcha ham shuning yaqqol misoli sifatida ijodkor tomonidan esga olingan:

Bu gapdan uch kun o`tgandan keyin kechki payt bir yerdan qaytib kelar edim. Bizning dargohga yaqin joyda ikki yashar chamali bir olatanacha beboshqoq o`tlab yurar edi. Podadan adashib qolganmi, uyini topolmaganmi- ishqilib, tevarak-atrof kuzatuvchisi edi. Sekin belbog`imni yechib, shoxiga bog`ladim. Eshon bu ishdan chandon-chandon xursand bo`ldilar.

Pul ko`p, qayg`u yo`q. Bozorni aylanib yurib hamma narsaga haridor bo`lib ko`raman. Qani endi adoq bo`lmas puling bo`lsa-yu, yuraversang. Qovunchiga borsang, Turkistonga borsang, Chinozga borsang, Maskopga borsang, hech kim churq etmasa, keta bersang, yana keta bersang, mazza...- deyman.

Nega men bunday noshud bola bo`ldim, kimga bo`lsa ham shogirtmi, yugurdakmi bo`lish kerak, biror nima topib onamga qarashib yuborishim kerak-ku, deyman. O`kinaman, o`zimni o`zim koyiman, ba`zan-ba`zan yig`lab qo`yaman.

Ammo bu holda uyga qaytish qiyin. Shum bola obrazida xalq xarakterining muhim chizgilari aks etgan bo'lib, qissaning o'zi chuqur xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan asardir. Yozuvchi asardagi Shum bola boshidan o'tgan voqealarni sarguzasht va qiziqarli hangomalar tarzida hamda uning xarakterining kulgili qiyofada ko'rsatada, bular asarning o'qimishlilikini belgilovchi, qissa janri va qahramon tabiatining yumoristik yo'nalishidan kelib chiquvchi xususiyatlaridir. Aslida esa, yozuvchi bu uslub baxonasida kosa tagida nimkosani, Birinchi jahon urushi arafasidagi xalq hayotidagi qiyinchiliklarni, yo'qchiliklarni, urf-odatlarini, ayrim illat va kamchiliklarni ko'rsatadi. Yozuvchi shum bolaning shaharma-shahar, qishloqmaqishloq kezib yurishlarini tasvirlash fonida xalq hayotining keng manzararasini, yashash tarzini, ruhiyatini, o'y-hayollarini, orzu umidlarini kiyim-kechaklaridan tortib, qozon-tovoqlarigacha bo'lgan jihozlarni; inson tabiati uchun begona bo'lmagan go'zalliklarni, kambag'al, qashshoq xonadonlardagi halollik, vijdoniylik, insonparvarlik xislatlarni ko'rsatadi.

Shum bola xalq vakillarining ko'pdan-ko'p xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, bir jihatdan, yig'ma va ayni vaqtda, konkret shaxs obrazidir. Ma'lumki, xalq jamiyat ravnaqiga, umuman odamlar kamoloti, tinchligi, yaxshi niyatlariga to'g'anoq bo'luvchilar ustidan kulib o'ch oladi, kulib g'olib chiqadi. Xalqning bir vakili shunday edi. Bu asarni o'quvchi kitobxonlarni ham muayyan darajada asar qahramoniga aylandi. Ular qissadagi firibgar, yulg'ich, ko'knori, dindor niqobi ostidagi imoni bo'sh kishilar, ziqna boylar, bezbet amaldorlar, qalloblar, axloqsizlar, vijdotsiz mirshablar, o'g'rilar ustidan kulib o'ch oladi. Butun asar davomida Shum bola bilan bir qatorda ijobiy kuch sifatida kulgi obrazi xalq obrazining muhim qirralaridan biri sifatida zohir bo'ladi. Shum bolaning o'zi esa butun asar davomida ana shu kuchning- xalq qiyofasining o'ziga xos bir timsoli sifatida namoyon bo'lishidir.

Shum bola ba'zan yolg'on ham gapiradi, yolg'onlari Sariboyning boshiga ko'p tashvishlar keltiradi, yana bir joyda boyning sigirini so'yib, go'shtini o'g'irlab ketishgacha chog'lanadi. Epsizligi tufayli ho'kizni o'rniga eshakni so'yib qo'yib

ho`kiz ham harom o`ladi. Lekin biz uning bu tabiatidan “salbiy” deb baholanishi mumkin bo`lgan fe`l-atvoridan nafratlanmaymiz, balki miriqib kulamiz. Xatto, uning bu kamchiliklari tufayli unga hayrixoh bo`lamiz. Qahramondagi bu kamchiliklarga o`sha hususiyatlarni targ`ib qilish emas, balki, bir jihatdan, haqiqiy salbiy shaxslardan sevimli qahramoni uchun “o`ch” olib boradi, boshqa bir jihatdan esa, o`z qahramonining ana shu harakatlarni qilishga majbur bo`lganini badiiy dalillab, unga bizni ham achintiradi. Jahon adabiyotining yuksak saviyali komik va yumoristik asarlaridagi kulgili holat va xarakterlarda ba`zan achchiq alamli achinish tuyg`ularni bera olishdek ulkan mahorat “Shum bola” ham balqib turadi.

Shum bola o`zgaruvchan, o`suvchan, dunyoqarashi ham shakllanib, takomillashib boruvchi obrazdir. Asar boshidagi bola bilan qissa nihoyasidagi o`smir o`rtasidagi katta farq bor. Qissa avvalida Shum bolani kulgili holatlarga tushib, kulgiga mahliyo bo`lib yuradigan o`z haq-huquqini ko`p anglamay, bir eshikdan ikkinchisiga quvilib yurishga majbur bo`luvchi holatda bo`lsak, asar oxiriga kelib uni ancha vazmin va bosiq, xaqsizliklarni tushuna boshlagan, xalq hayotidagi og`ir ahvolni, mashaqqatli turmush sabablarini mushohada etib, baxolay boshlagan, nohaqliklarga duch kelganda o`z haq-huquqlariga befarq qaramay, istaklarini dadil himoya qiluvchi, bir eshikdan boshqasiga quvilibgina emas, balki bu yerda xizmatkorlik qilish uni qoniqtirmay qo`ygani uchun o`zi shunday xulosaga keluvchi, yaxshiroq hayotni qumsovchi, hayotga o`z qarashlari shakllanayotgan yigitcha darajasini ko`ramiz.

“Shum bola” qissasining tili jonli xalq tiliga xos bo`lgan bo`yoqdorligi jihatidan ham maroqlidir. Obrazlilik, ko`chma ma`nodagi, latif qochirmalar, kasb-kor va urf-odatlarning individual shaxs ruhiyatidagi nozik ifodalari G`.G`ulomning badiiy tildagi yuksak mahoratidan dalolat berib turadi. Yozuvchining badiiy asar tilidagi ustalik, umuman, xalq tilining boyishiga, ifoda yo`sinining betakror milliy xususiyatlari mustahkamlanishiga ta`sir ko`rsatadi.

Ishning G'.G'ulomning "Shum bola" asarida bolalik xotiralari qismi yuzasidan chiqarilgan xulosa shu bo'ldiki, "Shum bola" qissasi, mohiyat e'tibori bilan, birinchi jahon urushi arafasidagi o'zbek xalqi hayoti, undagi qiyinchilik va mashshaqatlar bola ko'zi va nigohi orqali, sarguzashtnamo hangomalar asosida va yumorga yo'g'rilgan bir uslubda badiiy gavdalantirilgan sarguzash asar sifatida baxolandi.

Yozuvchi shum bolaning shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib yurishlarini tasvirlash jarayonida xalq hayotining keng manzararasini, yashash tarzini, ruhiyatini, o'y-hayollarini, orzu umidlarini aks ettirilgan. Sariboydan o'ch olishi, Eshonlarning hatti-harakatlari, yashab qolish uchun olib borilgan kurashlar asarning markaziy sujetlari sifatida ko'rinadi.

1.3. “Bolalik” qissasida ijtimoiy hodisalarga baho berilishi

Insoniyat qalbida hamisha ruhiy ozuqaga ehtiyoj seziladi. U o'z qalbini tiklash, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch-quvvat manbalarini izlaydi. Tarix, xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma'lumot olish uchungina tarixni o'qimaydi. Bu unga o'tmish haqida tasavvurga ega bo'lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg'otish, xalqni o'zligini anglashga urinish mas'uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo'lib o'z zimmasiga oladi. Nasriy asarlarimizda yozuvchilarimiz tarixga, bolalikka qaytish xotiralari asnosida kitobxon ko'z o'ngida tariximizning asl qiyofasi gavdalantirib bera oladi. Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek adiblari ijodida bolalik motivini o'rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi. O'rganilish doirasidagi asarlarni umumiy nomda avtobiografik yoki tarixiy asarlar deb nomlash bir tomonlama deb hisoblagan holda bolalik motivi asosidagi asarlar deb qarashni belgilab oldik.

Inson ulg'ayar ekan, hayotiy tajribaga ega bo'lib boradi. Hayotiy tajriba esa insonni bot-bot ortga qarashga, bosib o'tgan yo'lga boshqa ko'z bilan qarashga undaydi. Bolalikda bo'lib o'tgan voqealarga “bugun”ning nuqtai nazari bilan qaraydi. O'z navbatida ko'ngilga cho'kib qolgan bolalik xotiralari “bugun”ni qanday tushunishga ta'sir ko'rsatadi. Insonning xayolan bolalikka qaytishiga sog'inch, boy berilgan imkoniyatlarga achinish, o'zligini qayta anglash kabilar turtki bo'ladi.

O'zbek adabiyotida bolalikni eslab yozilgan asarlar talaygina. Oybekning “Bolalik” asari bolalikka qaytish motivi sifatida alohida o'rin tutadi.

Oybekning “Bolalik” qissasi oltmish yoshlar atrofidagi muallifning bolalik xotiralari asosida yaratilgan. Qissada keksalik fasliga kirgan adibning bolalik xotiralari orqali o'zligini qayta anglashga intilishini ko'rish mumkin. Bolaligida yuz bergan voqealar tasvirida muallif ko'ngliga cho'kib qolgan alam-iztiroblar sezilib turadi. Qissada bolalikda ro'y bergan ijtimoiy hodisalarga katta Oybek ko'zi

bilan qaraladi va mushohada qilinadi. Yozuvchi tarixga qaytib, xalqning hayoti, turmush-tarzi, taqdiriga e'tibor qaratadi.

Muallif bu davrning eng ayanchli tomonini xalqning savodsizligida ko'radi. Darhaqiqat, bu paytda yangi usuldagi maktablarga "kun yo'q", eski tartibdagi maktablarga esa ehtiyoj sezilmas edi. Sho'rlik xalqning boshi mehnatdan chiqmas, o'qib-o'rgangani esa vaqt topolmas edi.

Xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishini jonli turmush manzaralarida ko'rsatib berish, uning ozodlik, tenglik va adolatli tuzum uchun olib borgan tinimsiz kurashi va bu kurashlarni madh etish o'zbek adabiyotining vazifasidir.

O'tmishni badiiy aks ettirish xalqning tarixda o'z huquqi hamda ozodligi uchun kurash yo'lini, uning madaniy va ma'naviy boyliklarini yaratish uchun olib borgan harakatlarini qayta jonlantirish, ya'ni vatanparvarlikni kuylash, yosh avlodni tarbiyalashning zarur vositasi hamdir.

Milliy adabiyotlarda yaratilgan tarixiy asarlar xalqlar o'rtasida tenglik va do'stlik, ularning ko'p asrlik ozodlik kurashida birlik va hamjihatlik g'oyalarini targ'ib etadi, asrlar davomida turli xalqlar tomonidan yaratilgan milliy madaniyat boyliklarining takrorlanmas badiiy xususiyatlari va qirralarini ochadi, mazkur millatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonini, ularning o'ziga xos yo'lini aniqlab olish imkonini beradi. O'tmishning hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta baholanishi, o'zlashtirilishi milliy adabiyot mundarijasining boyishiga olib keladi. Xuddi ana shu sababga ko'ra boshqa qardosh adabiyotlarda bo'lganidek, o'zbek adabiyotida ham tarixiy mavzu keng o'rin egallab kelmoqda.

Oybek yaratgan asarlar ko'zdan kechirilsa, deyarli hamisha xalq erki, uning haq-huquqini himoya qiluvchi ideal obrazlar markaziy o'rinni egallashlari ko'rinadi. Bu hol, bizningcha, adib yashagan davr, ham uning ishtimoiy-estetik ideali shakllangan tarixiy davr sharoiti bilan bog'liq edi. Bunga ishonch hosil qilish uchun adibning tarixiy mavzudagi barcha asarlariga ochqich sanaluvchi "Bolalik" qissasidan olingan quyidagi parchaga diqqatni tortamiz: "O'g'lim tushundim. Ishchilar, dehqonlar, kambag'allar muhtojlar olamda juda ko'p. hech misli yo'q.

lekin boylar, savdogarlar, sudxo`rlar, yer egalari, qo`ying-chi hokazolar hammasi tekinox`r. Ammo zulm haddan oshdi. Qani koshki edi bilimdon aqilli, hushli, odil dono bosh bo`lsa. Qani yo`q-da axir... Koshkiydi payg`ambarimiz Muhammad alayhissalom birdan bosh ko`tarib chiqsalar, mushkullarimiz oson bo`lardi. ”

“Bolalik” avtobiografik asar ekanligidan kelib chiqsak, bu parchada Oybekning bolaligida o`z ko`zi bilan ko`rgan, quloqlari bilan eshitgan real hayot manzarasi aks etgan, deyish mumkin. Oybekning bolaligi esa o`tgan asrning 10-yillariga – xalq turmushi haddan tashqari og`irlashgan, shunga mos ravishda xalqning “xaloskor qahramoni” haqidagi asriy sog`inchi kuchaygan davrga to`g`ri keladi. Taassufki, xalq kutgan “xaloskor qahramoni” maydonga chiqmadi. Murg`ak Oybek diliga jo bo`lgan bu orzu manguga armon bo`lib qoldi. Ta`kidlash joizki, adib dilidagi “xaloskor qahramon” bolaligida ko`rgan va eshitganlari asosida shakllangan bo`lsa-da, uning ildizi juda chuqur bo`ladi. Xalqimizning ming yilliklar bilan o`lchanuvchi tarixi, adabiy-madaniy an`analaridan suv ichadi. Xalqimiz dahosi Alpomish, Go`rog`li singari “xaloskor qahramonlar”ni yaratgan, asrlar davomida ular haqida dostonlar kuylab, rivoyatlar naql qilib kelgan. Demak, Oybek tasavvurida bolaligidanoq shakllangan “xaloskor qahramon” ideali mohiyatan ijtimoiy-shaxsiy harakterga egadir.

Avvalo, “Bolalik” qissasini avtobiografik asar ekanligidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, biz tahlilga tortmoqchi bo`lgan parchalarda ijtimoiy hayotni anglash va qayta mushohada qilish vazifasi namoyon bo`ladi. Qissada o`zi bolalik davrida boshidab o`tkazgan, guvohi bo`lgan voqealarni ma`lum yetuklik yoshida qayta yashashga, estetik jihatdan idrok qilishga, yaxlit bir butunlik sifatida tahlil qilishga katta ehtiyoj sezgan. Natijada Oybekning butun bolaligi, o`smirligi davrlari voqea-hodisalarini o`zida mujassam qilgan avtobiografik asar dunyoga keldi. Bolalik qissasida aytmoqchi, ifodalamoqchi bo`lgan fikr-mulohazalarini boshqa janrdagi asarlarda aytmoqchi bo`ladi.

U, avvalo, xalqning yashash, tumish-tarzini qay ahvoldaligi bilan qiziqadi. Xalqning boy emasligi dasturxonda ham yegulik biror narsani uchratish quyin, quyidagi parchada ham shuni ko`rish mumkin:

*Ertalab choy ichamiz. Onam, opam, bobom, buvam va men – hammamiz ayvonda, dasturxon atrofida davra qurganmiz. Bobom to`rda men uning pinjida o`tiranman. Pastda samovarning yonida onam choy quyib ulgurmaydi. Choy va non chakkaga tekkan! Na qand, na turshak! Men jizzali va piyozli nonlarni buvim ahyon-ahyonda yopadi.*²⁰

Bu davrda turmish toshdan qattiq bo`lib ketgan payt. Ochlik odamlarni ba`zan o`g`irlikka boshlar, hayot ularni shunga majbur qilib qo`yar edi. Bu ham qaysidir ma`noda yashash uchun kurash sifatida baxolanadi. Oybekning Otasi Toshmuhammadni dadasi bilan bo`lga o`zaro suhbatda shu narsa anglashiladi:

Nima bo`ldi, gapir, qalay yumushlarining? – so`raydi og`ir sukutdan keyin bobom.

Dadam, Toshmuhammad, baland bo`yli, sariqdan kelgan, soqol mo`ylovi qora, ust boshi qo`polgina kishi . u bobomga javob bermaydi. Yana anchagina jim o`tirgandan keyin nosvoyin tupurib tashlaydi-da, qisqagina qilib to`ng javob qiladi.

- *Uch kun bo`ldi – do`konga o`g`ri tushdi, qolgan mollarni nari-beri sotdim-da, do`konni tashlab, Xumsondan ketdim, ish shunday rasvo...*

Ba`zan insonlarda moddiy qashshoqlik, ma`naviy qashshoqlikka olib kelishi mumkin. Ularning harakterida salbiy jihatlar paydo bo`ladi. Shu jarayonda o`zligini saqlagan kishilar inson degan sharaflil nomga sazovar bo`ladi. Bu jihatda qaraganda uning yaqqol misolini quyidagi parchada ko`ramiz:

Bir kuni bobomning ustaxonasida o`tirsam kir paranjiga o`raglan, qaddi bukik , oriq bir xotin salom berib kiradi va sekingina deraza tagiga cho`kadi. – O,

²⁰ Ойбек. Болалик.-Тошкент: Фан,1977.-86 б.

aylanay, pirim, mehribonim!- deydi kampir bobomga murojat etib. – Huzuringizga keldim.

Bobom boshini ko`tarmasdan alik oladi-da, kampirdan so`raydi: - Ha, ishining qalay kampir?

Kampir uzoq gapiradi, bolasining ishsiz sarsonligidan hasrat qiladi, turmushdan zorlanadi:

Bobom indamaydi, do`q-do`q qilib sonni urub qo`yadi-da, bir pastadan keyin noxush tovush bilan deydi:- shum bola. Bilaman uni, bir vaqt ishlagan. Takabbur qo`rs, pichingni yaxshi ko`radigan, shilqim bola, tushundingmi?

Kampirning nafasi bir lahza ichiga tushub ketadi, keyin yalinchoq tovush bilan gapiradi:

- Gapingiz to`g`ri, usta. Xammasi rost, qanday qilay, yomon qo`rs bola, o`lguday o`jar, dilozor. O`zim ham bilaman, taqsir. Yo`lga soling, lekin aqli raso. Odam bo`ladi degan umidim bor, taqsir. Yordam bering, yaxshiligingizni sira unutmaymiz, ochmiz....

Yashsash qiyin sharoitda bo`lishiga qaramasdan cholning kampirga rahmi kelib yordam qo`lini cho`zganligini ko`ramiz. Bu parchada yana bir jihatni ko`rishimiz mumkin. E`tiborlisi ona o`z farzandi uchun qayg`urayotganligi ko`rinadi. Farzandini fe`l-atvori: “Takabbur qo`rs, pichingni yaxshi ko`radigan, shilqim bola”ligini bilsa ham, baribir u uchun kami-ko`stsiz bo`lib ko`rinadi.

G`affor akaning xotini kelin oyi oppoqqina, ko`zlari o`ynoqi, isimlikkina juvon. U hozir xo`ng-xong yig`lab, nimalarnidur kuyunib gapirmoqda.

E, haromi, bas deyman senga, shallaqi! Xo`rdani ming shukur deb ichib o`tiraver!- vag`illaydi G`affor aka. – palovjonni men ham ho`p bilaman, lekin qani daromad, ?! O`zim bo`lsa, yozda mardikor, qishda supurgichi! Bilasan-ku, buni, chulchut?!

Xotini eridan baland kelib baqiradi:

- Ha, bilaman, toshdan qattiqligini bilaman! Pul deganda joningni berasan.

Ha desa- qanoat, ha desa – qanoat! O`lib ketsin qanoat, qanoat bundan

ortiq bo`ladimi?! Qachondan beri qora qozon palov o`lgurdi ko`rmadi!
Shu bugun kuni bilan ko`z tutdim, go`sht-yog` ko`tarib kelarmikan deb,
bolalarga bir siqim palov qilib beramanmi deb, yer yutgur, iymonsiz!....
Bolalar chuvvos, g`affor aka so`kib vag`illaydi. Qo`shnilarning, ayniqsa,
erkaklarning bu janjalga ishi yo`q, beparvo. Har kungi mashmasha, hamma
o`rganib qolgan

Hayot qiyinchiliklari ba`zi xonadonlarda urush bo`lib turishiga sabab sifatida
ko`riladi. Hammaning ham yaxshi yashagisi keladi, lekin surunkali bu ko`rinishlar
har qanday insonning medasiga tegadi. Oybekning bolalik chog`larida hayolida
muhirlangan voqealarning asosiy qismi ijtimoiy hayotdagi shu kabi voqealar.
Alohida ta`kidlangan joyi erkaklarning bu kabi janjallarga e`tiborsizligining sababi
bu davrdagi har bir xonadonning ko`rib bilgani – shu. Hamma o`rganib qolgan
oddiy hol sifatida qaraladi.

Yozuvchi yana e`tibor bergan jihatlardan biri bilim olish, savodxonlik
jarayoniga katta e`tabor beradi. Xalqning shu holatga tushishining sababkori
o`qimaslik. Ta`lim jarayoning to`g`ri tashkil qilinmaganligi, eskilik sarqitlari
ijtimoiy hayotdan hali-hanuz chiqib ketmaganligi bilan bog`liq. O`quvchilar nega
buncha maktab va domlalardan qochar edi? Eski odatga ko`ra o`quvchilar dars
tayyorlay olmasa jismoniy jazolar bialn jazolanar, nimani o`qishayotganini
tushunmas, ma`nosini anglamas. Eng yomon tomoni bolalarga ta`lim beradigan
o`qituvchilarning o`zlari hali bilim darajasi yaxshimas. Ularning maqsadi bolalarga
ta`lim-tarbiya berish emas, ko`proq ular orqasidan keladigan moddiy jihat e`tiborli
edi. Bundan tashqari o`quvchilarga bo`lgan munosabat ham o`sha moddiy ahvoliga
qarab belgilangan. Shunday holatlardan so`ng go`yo maktab g`urbatxona bo`lib
ko`rinar, uyga ketishni intiqlik bilan kutishar. *“Lekin maktabdan “Ozod!”
deganda, qushday yengil uchamiz”.* Domlam bir qori bolani yoniga yaqin
o`tkazadi. – Qani o`qi! – qovog`ini solib. Bola qiroat bila qur`onni o`qiy
boshlaydi. – Qola, yamla yut...- der ekan titroq tovush bilan qori bola, domlam
shaq etib shapaloq bilan tushurib qoladi. Bolaning quloqlari yonib ketadi. Na

buvimning, na onamning e'tirozini pisand qilaman, avvalgidan balandroq do`q qilaman, jahl bilan onamga qichqiraman:

- Ertalab vaqtli cho`zasiz pulni, bo`lmasa maktabga bormayman!

Hamma yoqda baxor! Baxor nash`asi ko`ngillarga ham kirib qolgan... Oyoqlar tosh bog`lagandek, maktab tomon bazo`r yuradi, lekin maktabdan "Ozod!" deganda, qushday yengil uchamiz.

Nafaqat, maktabda balki, ijtimoiy hayotda ham bu munosabat saqlanib qolgan quyidagi parchada ham ko`rish mumkin:

"Taqsir boylarning, savdogarlarning ham o`g`ilchalarini biting ro`yhatning boshiga. Har joyda ular ilg`or qani ko`raylik-chi bu gal!" deydi hamma bir og`izdan.

Yozuvchi xalqning eng ayanchli jihatini savodsizligida ko`radi. Bu holatdan qutilishning asosiy sababi o`qish, o`qish va yana o`qish deb biladi. Bu holatga bo`lgan e`tibor A. Qahhorning O`tmishdan ertaklarda ham yoqqol namoyon bo`ladi: *"Usta Turdali ketmonni olishda unga har xil belgilar qo`ysa, dadam po`lat qalam bilan ketmonning elkasiga egasining otini yozib qo`yar, dehqon xat bilmasa ham bunga juda qiziqar, xursand bo`lar edi"*²¹. Mehnatkash xalqning turmush tarzi og`irligidan maktab yoki madrasaga borib savod chiqargani moddiy sharoiti ko`tarmas edi. Ayrim mullalarning o`zi qayta maktab ko`rishga muhtoj bo`lib turganda, xalqning bilim darajasi qay ahvolda bo`lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Bu davrda yetishib chiqqan yozuvchilar bu holatga turli shaklda ifodalagan bo`lsa ham mazmunan bir hil ko`rinishga ega. Oybekning ta`kidi mana shunday aks etadi:

O`qigan yaxshi gap-da, o`qimishli odamning aqli to`liq bo`ladi, har narsani bilasan, dunyoning bordi-keldisidan xabardor bo`lib turasan.

Xulosa qilib aytilganda, Oybekning "Bolalik" asarida qanday voqealar akslanmasin bularning hammasi uning yoshlik chog`ida bo`lib o`tgan o`chmas

²¹ A. Qahhor. "O`tmishdan ertaklar". T.: Sharq-2014. -107 b.

xotiralardir. Mana shu xotiralar bilan xalqimizning yashash tarzi va biz uchun tarixga aylangan davrni ko`rsatib bera olgan.

Xalqimizning uzoq va yaqin o`tmishini jonli turmush manzaralarida ko`rsatib berish, uning ozodlik, tenglik va adolatli tuzum uchun olib borgan tinimsiz kurashi va bu kurashlarni madh etish o`zbek adabiyotining vazifasidir. O`tmishni badiiy aks ettirish xalqning tarixda o`z huquqi hamda ozodligi uchun kurash yo`lini, uning madaniy va ma`naviy boyliklarini yaratish uchun olib borgan harakatlarini qayta jonlantirish, ya`ni vatanparvarlikni kuylash, yosh avlodni tarbiyalashning zarur vositasi hamdir. Milliy adabiyotlarda yaratilgan tarixiy asarlar xalqlar o`rtasida tenglik va do`stlik, ularning ko`p asrlik ozodlik kurashida birlik va hamjihatlik g`oyalarini targ`ib etadi, asrlar davomida turli xalqlar tomonidan yaratilgan milliy madaniyat boyliklarining takrorlanmas badiiy xususiyatlari va qirralarini ochadi, mazkur millatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonini, ularning o`ziga xos yo`lini aniqlab olish imkonini beradi. O`tmishning hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta baholanishi, o`zlashtirilishi milliy adabiyot mundarijasining boyishiga olib keladi. Xuddi ana shu sababga ko`ra boshqa qardosh adabiyotlarda bo`lganidek, o`zbek adabiyotida ham tarixiy mavzu keng o`rin egallab kelmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, o`zbek adabiyoti tarixida o`ziga xos cho`qqi sanalgan asarlarning aksariyatida o`tmish mavzusi yoritilgan. Oybek nafaqat san'atkor sifatida, balki mutafakkir olim sifatida o`zbeklar tarixining ichki oqimlariga chuqur nigoh tashlaydi, bu tarix hududiy jihatdan ham, xronologik jihatdan ham o`zbeklar tarixi tarqoqdek, parchalanib ketgandek ko`rinsa-da, aslida bir xalqning tarixi bo`lganini ko`rsatadi, bu bo`laklarning mantiqan bog`lab turadigan rishtalarini topadi. Albatta, buni u oshkora tarzda, yaqqol ko`rinib turadigan shaklda qilgan emas, u sharoitda bunday qilishning imkoni ham yo`q edi, o`z millatini ulug`lash, uning ijobiy sifatlarini madh etish butun dunyoda ijobiy hodisa deb qaralsa-da, bizning sho`ro mamlakatida bu millatchilik deb hisoblanar va bu yo`lga kirgan har qanday fikrlovchi odam dahshatli ta`qiblar xavfiga va hatto jismonan faol hayotdan

chetlashtirish xavfiga ham ro‘para kelar edi. Shuning uchun millatni uyg‘otishga, milliy ongni o‘stirishga, xalqni o‘z-o‘zini tanishiga yo‘naltirilgan harakatlar ko‘p hollarda ezop tilida, ramziy shakllarda olib borilardi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish kerak — bugun hammamiz “millat”, “milliy ong”, “millatning uyg‘onishi” kabi iboralarni hech tortinmasdan bemalol qo‘llayapmiz. Albatta, bu ham mustaqilligimizning sharofati, milliy erkinligimizning hosilasidir. Istiqlool bizga tariximizni qaytarib berdi va milliy ongimiz, milliy uyg‘onishimiz to‘g‘risida haqiqatni aytishga, haqqoniy fikrlashga imkon berdi. Bugun biz shu imkoniyat tufayli uzoq o‘tmishda va nisbatan yaqin tarixda yaratilgan buyuk ma’naviy qadriyatlarimizga ega bo‘ldik. Bu ishda boshqa olimlarimiz va adiblarimiz qatorida Oybekning xizmatlari chindan ham buyukdir. Shuning uchun xalqimiz bu adibni “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlaganini katta mamnuniyat bilan qabul qildi. Shunday qilib, Oybek iste’dod uchun uncha qulay bo‘lmagan og‘ir zamonlarda yashagan bo‘lsa-da, eng murakkab talato‘plar orasida ham, mudhish qirg‘inbarotlar sharoitida ham inson o‘zining insoniy qadr-qimmatlarini saqlab qolishi mumkin ekanini va bu faqat uning o‘zigagina bog‘liq ekanini asarlari va hayot yo‘li orqali isbot qildi. Xalqimizning uzoq va yaqin o‘tmishini jonli turmush manzaralarida ko‘rsatib berish, uning ozodlik, tenglik va adolatli tuzum uchun olib borgan tinimsiz kurashi va bu kurashlarni madh etish o‘zbek adabiyotining vazifasidir.

O‘tmishni badiiy aks ettirish xalqning tarixda o‘z huquqi hamda ozodligi uchun kurash yo‘lini, uning madaniy va ma’naviy boyliklarini yaratish uchun olib borgan harakatlarini qayta jonlantirish, ya’ni vatanparvarlikni kuylash, yosh avlodni tarbiyalashning zarur vositasi hamdir.

Milliy adabiyotlarda yaratilgan tarixiy asarlar xalqlar o‘rtasida tenglik va do‘stlik, ularning ko‘p asrlik ozodlik kurashida birlik va hamjihatlik g‘oyalarini targ‘ib etadi, asrlar davomida turli xalqlar tomonidan yaratilgan milliy madaniyat boyliklarining takrorlanmas badiiy xususiyatlari va qirralarini ochadi, mazkur

millatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonini, ularning o`ziga xos yo`lini aniqlab olish imkonini beradi. O`tmishning hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta baholanishi, o`zlashtirilishi milliy adabiyot mundarijasining boyishiga olib keladi. Xuddi ana shu sababga ko`ra boshqa qardosh adabiyotlarda bo`lganidek, o`zbek adabiyotida ham tarixiy mavzu keng o`rin egallab kelmoqda.

Oybekning “Bolalik” qissasida ham shunga o`xshash ijtimoiy qarashlarning ifodasini ko`rish mumkin. Yuqoridagi asarlar bilan tutash nuqtalar bo`rligi seziladi. Bu ijodkorlarning asarlari shaklan har xil bo`lsa-da, mazmunan ifodalanayotgan jihatlar bir. Qissada o`zi bolalik davrida boshidan o`tkazgan, guvohi bo`lgan voqealarni ma`lum yetuklik yoshida qayta yashashga, estetik jihatdan idrok qilishga, yaxlit bir butunlik sifatida tahlil qilishga katta ehtiyoj sezgan. Natijada Oybekning butun bolaligi, o`smirligi davrlari voqea-hodisalarini o`zida mujassam qilgan avtobiografik asar dunyoga kelishiga sabab bo`ldi. “Bolalik” asarida yozuvchining o`sha davrdan alamzadaligi sezilib turadi. Bola nigohi orqali jamiyatni tanazzulga olib borgan jihatlar ko`rsatilgan.

II. BOB. UMR SARHISOBI EHTIYOJI VA BOLALIKKA QAYTISH

2.1. A. A`zamning “Quroq” qissasida bolalikka qaytish.

Inson o`z qalbini uyg`otish, tafakkurini kamolotga yetkazish uchun kuch-quvvat manbalarini izlaydi. Tarix, xotira ana shunday qudratli manba sarchashmasi hisoblanadi. Kishi faqat ma`lumot olish uchungina tarixni o`qimaydi. Bu unga o`tmish haqida tasavvurga ega bo`lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg`otish, xalqni o`zligini anglashga urinish mas`uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo`lib o`z zimmasiga oladi. Nasriy asarlarimizda yozuvchilarimiz tarixga, bolalikka qaytish xotiralari asnosida kitobxon ko`z o`ngida tariximizning asl qiyofasi gavdalantirib bera oladi. Shu o`rinda aytish kerakki, o`zbek adiblari ijodida bolalik motivini o`rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi. O`rganilish doirasidagi asarlarni umumiy nomda avtobiografik yoki tarixiy asarlar deb nomlash bir tomonlama deb hisoblagan holda bolalik motivi asosidagi asarlar deb qarashni belgilab oldik.

Inson ulg`ayar ekan, hayotiy tajribaga ega bo`lib boradi. Hayotiy tajriba esa insonni bot-bot ortga qarashga, bosib o`tgan yo`liga boshqa ko`z bilan qarashga undaydi. Bolalikda bo`lib o`tgan voqealarga “bugun”ning nuqtai nazari bilan qaraydi. O`z navbatida ko`ngilga cho`kib qolgan bolalik xotiralari “bugun”ni qanday tushunishga ta`sir ko`rsatadi. Insonning xayolan bolalikka qaytishiga sog`inch, boy berilgan imkoniyatlarga achinish, o`zligini qayta anglash kabilar turtki bo`ladi. A. A`zamning “Quroq” qissasi oldingi A. Qahhorning “O`tmishdan ertaklar”i, Oybekning “Bolalik”, G. G`ulomning “Shum bola”si o`rtasida umumiylik bor. Bu umumiylik, avvalo, bolalik asar yozishdagi shaxsiy, psixologik ehtiyoj bilan bog`liq.²²

²²Шералиева М. Бобурнинг андишаси. – Т.: Турон замин зиё, 2015-76.

Yuqoridagi bobda tahlilga tortilgan asarlarda ijtimoiylik kuchliroq o'z ifodasini topgan. Bu bobda obyekt sifatida qaralayotgan asarlarda esa o'ziga xoslik nimada ekanligini tahlil jarayonida ko'rib, kuzatib boramiz. "Quroq"da yozuvchi Ahmad A'zam bolaligini eslar ekan, ko'proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo'qdim kabi masalalar asarining markaziy tushunchasi hisoblanadi. Asarning boshlanishida bolalik-beg'uborligini eslaydi:

Sinfda urushmaymiz-u, lekin darsdan keyin ko'chada g'animmiz, qiziq, bola ekanmiz-da, bolalikning kessaklari yumshoq bo'lganmi, bunaqa otishmalardan onalarimiz, hay yashshamagur, ko'zini chiqarib qo'lasan, boshing yoriladi, deb javrashlariga qaramay, birortamizga zarar yetmagan, ammo-lekin tosh otmas edik, faqat kesak, bolacha dushmanligimiz ichida g'irromlik yo'q edi.

Bu xotiralar asarni o'qigan har qanday kishini olis yoshlik chog'lariga qaytarib, qayta yashash jarayoni yuz beradi. Bu hayotiy lavhalar inson umriga ruhiy ozuqa beradi. Shu bilan birga yangilanish hodisasi ham boshdan o'tadi. Yozuvchi o'z asarida shunday voqealarni akslantiradiki, bu voqelar go'yo sizni ham hayotingizda yuz berayotganga o'xshaydi. Asar qahramoning dardiga sherik, g'amiga oshno bo'lganizi bilmay qolasiz. Bolalik chog'lardagi qilingan orzular juda beg'ubor bo'ladi. Siz ham shunday orzular qilganligingiz aniq:

Qaytishda terlab pishamiz, shuncha yo'lga borib cho'milganimiz bir pul, endi Bulung'urga kalla tashlay uyga bormaymiz. Yozimiz ish, ishdan qochib,

Aytgancha, kolxos g'ishtining mingiga sakkiz so'mdan pul va `da qilib, qo'yganimizdan keyin esa bo'-o` deb, biz bolalarga hech zarili yo'q, bug'doyiga chiqqan, eshakda to'rvalab tashiganmiz: qo'limiz pul ko'rsa, velosiped olamiz, ko'chada qizlarni xavaslantirib uchurib o'tamiz degan orzular o'sha qazganimiz loyhandaqlarda uyalaganicha qolgan.

Bolalik chog'larda nimalarni orzu qilmaysan, nimalarni tush ko'rmaysan. Odamzot fe'li-harakterida juda qiziq ruhiy o'zgarishlar bo'lib turadi. Yoshlikda ko'p pul topsam, katta bo'lsam, yoshing kattaygan sari bolaligingni qumsaysan

go`yo. Nima uchun shunday ekan, bu juda qiziq! Bosh qahramonning yoshlikdagi pul toppish uchun qilingan ishlari kichgina joniga zarilmikin deb qolasiz. Bolalarcha orzular qilib yuraversa bo`lmasmidi. Bu bilan yozuvchi sen aytgan hamma narsa amalga oshavermaydi, hamma narsa qanoat va sabr bilan amalga oshadi, bugun bo`lmasa ertaga deb aytmoqchidek. Qilingan orzularga osonlikcha erishib bo`lmaydi, uning zamirida juda katta mehnat yotadi. Yosh o`tgandan keyin esa bu qiyinchiliklarni farzandiga ravo ko`rmasdan, ularni kelajagi uchun zamin hozirlab qo`yadi. Ota-onalar buni o`z vazifalaridek qabul qiladi, qiynalmasligi uchun sharoit yaratadi:

Hozir o`g`limning o`zimning o`rnimga qo`yib ko`rsam, im-m deb tishimni tishimga bosaman, uning qilmagan, endi sira qilmaydigan mehnatidan ezilaman. Yo`q, bolalarim, nevaralarim uchun ham bo`tanalarni ham o`zim ichdim, hayotning imoratiga qancha g`isht lozim bo`lsa, oldindan o`zim qo`yib qo`ydim.

Bola harakteri o`smirlik davrigacha shakllanib bo`lgan bo`ladi. Qaysi tomonga qarab o`ssa o`sha tomonga qarab shakllanadi. Bosh qahramon egasini ruhsatisiz bodring o`g`irlagani uchun o`zini katta gunoh qilgan insonga qiyoslayapti agar shunday bo`lib qolib ketganda, balki... bu bilan o`quvchiga kattami kichikmi o`g`irlikdan saqlanish kerakligini ta`kidlab o`tgan:

Kichik gunohdan bir uyalgan odam keyin katta gunohlardan uyalib qolar ekan. Shu desangiz, bir kuni bodring o`g`irlovdim.

Odam bo`lishga anglab-anglamay yo`l izlabmi, shu mehnatlar ichida maktabni, xususan uning kutubxonasini boshni sajdaga to`g`rilaydigan mehrobga aylantirib olgan edim.

Bir kuni tut tagida ustimdan soya ketib, oftob boshimgatikkkadan urub kuydirib yuborguncha o`qib yotaveribman, sakrab tursam mollar yo`q!

Shu ko`rinishdagi voqealar siz va bizning boshimizdan o`tganligi aniq. Goho o`yin qaroqmiz, goho boshqacharoq bularning hammasi bolalikka xos jihatlar sifatida qabul qilinadi. Ba`zan shunday xolatlar yuz beradiki, hech nimadan qoniqmaysan, hech kimga keraging yo`qdek tuyuladi. Shunday paytlarda goh

o`zingni kimsasiz kenglikka olgin kelsa, goh odamlar orasiga olgin keladi, ular bilan yashagin ga`miga sherik, dardiga darmon bo`lging keladi. Asar qahramoni ko`proq o`zini o`rnini kishilar ichida deb bilib, shular tomonga intilgani quyidagi parchada ham bilib olishimiz mumkin:

Shu chopishim bir umirlik ekan, bir umr odamlar oarsida yashab, bir umirki odamlar tomon yuguraman.

Yolg`izlik haqidagi aytilganlari, odamni o`ylantiradi. Yuz yil, ming yildan beri yolg`izlikdan qochib qutulolmadim, yo`q, qancha o`ylasam ham, sababini, oxirini, nimaligini o`ylab, ming bor tahlildan o`tazsam ham undan qutulolmadim degan ta`kidlar bilan yana to`ldirish mumkin.

Hozirgi o`zbek adabiyoti o`ziga xos an`ana va badiiy mezonlar asosida shakllangan. Hozirgi o`zbek nasri taraqqiyotida jiddiy o`sish-o`zgarish yuz berdi. Jahon adabiyotiga xos ilg`or ijodiy an`analar bir qator yangicha talqin uslubi va yangicha shakliy ko`rinishlar bilan kirib kelmoqda.

Zamonaviy o`zbek adabiyotidagi bolalikning badiiy talqinlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

Abdulla Qahhorning “O`tmishdan ertaklar” asarida xalqning tarixini ro`y-rost ko`rsatib berish orqali muallif “kecha” va “bugun”ni solishtirib, tarixiy haqiqatlatni oshkor qilgan. Asarda dunyoni qayta anglash jarayonida ham muhim o`rin tutadi. Asardagi dastlabki voqealariga yosh Abdullaning bolalarcha sodda qarashlari beriladi, qissa davomida esa, keksalik qiyofasiga kirgan, hayotni keng o`ylovchi katta Abdulla Qahhorning fikrlari ko`rinadi. “O`tmishdan ertaklar” asarida bola nigohi orqali jamiyatning ijtimoiy hodisalariga baxo beriladi. Oilasini ko`chib yurishi va bu orqali “kelgindi”ga aylanishi atrofidagi voqealar uning qalbida o`chmas iz qoldirgan. Ayniqsa, mehribon, mo`min Olim buvaning otasi usta Abduqahhorga bo`lgan munosabati, hayot neligini bilmasdan o`lib ketgan Savriniso, xotinini tirik qolishi uchun har ishga tayyor Babar kabi xalqning tipik vakillarining ayanchli taqdiri ijodkorning keksaygan damlarida ham kecha bo`lib o`tgan voqeadek taassurot qoldiradi. Bu asar yozuvchining bolalik xotiralari

ijtimoiy hayotni qayta tahrirdan o'tkazgan holda, o'zining qarashidagi baxoni bergan.

Ishning G'.G'ulomning "Shum bola" asarida bolalik xotiralari qismi yuzasidan chiqarilgan xulosa shu bo'ldiki, "Shum bola" qissasi, mohiyat e'tibori bilan, birinchi jahon urushi arafasidagi o'zbek xalqi hayoti, undagi qiyinchilik va mashshaqatlar bola ko'zi va nigohi orqali, sarguzashtnamo hangomalar asosida va yumorga yo'g'rilgan bir uslubda badiiy gavdalantirilgan sarguzash asar sifatida baxolandi.

Yozuvchi shum bolaning shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib yurishlarini tasvirlash jarayonida xalq hayotining keng manzararasini, yashash tarzini, ruhiyatini, o'y-hayollarini, orzu umidlarini aks ettirilgan. Sariboydan o'ch olishi, Eshonlarning hatti-harakatlari, yashab qolish uchun olib borilgan kurashlar asarning markaziy sujetlari sifatida ko'rinadi.

Oybekning "Bolalik" qissasida ham shunga o'xshash ijtimoiy qarashlarning ifodasini ko'rish mumkin. Yuqoridagi asarlar bilan tutash nuqtalar bo'rligi seziladi. Bu ijodkorlarning asarlari shaklan har xil bo'lsa-da, mazmunan ifodalanayotgan jihatlar bir. Qissada o'zi bolalik davrida boshidan o'tkazgan, guvohi bo'lgan voqealarni ma'lum yetuklik yoshida qayta yashashga, estetik jihatdan idrok qilishga, yaxlit bir butunlik sifatida tahlil qilishga katta ehtiyoj sezgan. Natijada Oybekning butun bolaligi, o'smirliги davrlari voqea-hodisalarini o'zida mujassam qilgan avtobiografik asar dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. "Bolalik" asarida yozuvchining o'sha davrdan alamzadaligi sezilib turadi. Bola nigohi orqali jamiyatni tanazzulga olib borgan jihatlar ko'rsatilgan.

Ikkinchi bob Umr sarhisobi ehtiyoji va bolalikka qaytish qismida A.A'zamning "Quroq" qissasi va A.Obidjonning "Ajnasi bor yo'llar" asarlari o'rganildi. "Quroq"da yozuvchi Ahmad A'zam bolaligini eslar ekan, ko'proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo'qotdim kabi masalalar asarining markaziy tushunchasi hisoblanadi. Asarda eshak obrazi vositasida yoshlik yana bir bor esga olinadi. Asarda hayot haqidagi

o`y-fikrlar e`tiborga molik. Bu asarda ijtimoiylik bilan bir qatorda didaktik masalarga yog`rilgan, ya`ni insonga xos bo`lgan sabr-qanot, mehnatsevarlik aks etgan voqealar kishini o`ziga tortadi.

Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” asarida voqealar tizimi olis yoshlikdan boshlab yozuvchining bugungi kunga qadar bosib o`tgan kunlari haqida batafsil bayon ketgan. Bu asarda yozuvchi bolalikka qaytish umr sarhisobi sifatida nimalarga erishdim-u, qanday imkoniyatlar qo`ldan boy berildi kabi savollarga ijodkor tomonidan javoblar berilgandek tasavvur uyg`otadi. Otasi bilan bog`liq bo`lgan bolalik xotiralarini kishini chuqur o`yga toldiradi. Unda kishilarning ma`naviy qiyofalari ishonarli detallar yordamida ochib beriladi.

Ikkinchi bobdagi asarlarda bir qator ijtimoiylik ham ko`rinadi, lekin asarning bosh maqsadi bu emas. Keksalik fasliga kirgan yozuvchilar umrini sarhisob qilish bilan birga, bolalik chog`larida yuz bergan voqealarni eslash asnosida ijodkorlarda ruhiy yangilanish yuz beradi.

Bolalikka qaytish kompozitsion usul sifatida deb nomlangan uchunchi bobda obyektini bolaik bo`lmagan, lekin asar kompozitsiyasidan kelib chiqib bolalik xotiralariga qaytgan asarlarni tahlilga olganmiz. Bunda ortga qaytish, ya`ni retrospeksiyaning asar strukturasiidagi ahamiyati tekshirildi. Ishningning bu qismida asarda retrospeksiyaning badiiy-estetik fuksiyalari ko`rib chiqildi. Muallif asar bosh qahramonining hayotini o`tmishga qaytib tasvirlar ekan, “kecha”si va “bugun”nidagi ruhiy-ma`naviy o`zgarishlarni ko`rsatishni maqsad qilib qo`ygan. Yusufdagi o`zgarishlarni o`quvchi yaqqolroq tasavvur qilishi va solishtirishi uchun retrospeksiyaning qo`llanilishi o`rinli. Bu orqali asar qahramonning o`tmishiga qaytib, shu kun nuqtai nazari bilan uni va atrofidagilarni kuzatish imkonini beradi.

Bolalik retrospeksiya ob`ekti bo`lgan asarlarni o`qir ekanmiz, muallif bolaligini nima uchun eslayapti, u qanday vazifa bajaryapti, qaysi voqealarni eslayapti-yu qay tarzda tasvirleyapti degan savollarni qo`ya olsak, yozuvchining ko`zlagan maqsad va muddaolarini to`laroq tushunishimizga asos bo`ladi.

Hashar sahnasi ko'p narsani ochib beradi. Hamqishloqlarini yashab turgan xayotidan uyalishga majbur tarzi shunday, bunda qishloq aholisining turmush-tarzini o'zi shunday bo'lsa und anima ayb. Chiqib ketgan odamning o'zi emas, balki hamqishloqlari ham o'zgardi. O'zingdagi o'zgarishni yengib qishloqqa borsang ham, ulardagi o'zgarishlarni yenga olmaysan, nedur qayta uyg'unlikka yo'l bermaydi. Mana shu o'zinikilarga begonalik, yolg'izlik kayfiyati qishloqdan shaharga kelib qolgan yolg'iz odamlarni birlashtiradigan kayfiyatmikin deb o'ylarga boraman. "Quroq"da yozuvchi Ahmad A'zam bolaligini eslar ekan, ko'proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo'qotdim kabi masalar asarning markaziy tushunchasi. "Quroq" haqidagi asosiy gaplar hali aytilgan yo'q. bu ikki og'iz bilan aytiladigan gap emas. Qishloqning shu bir qishloq misolida o'zbekning millatning, xalqning dardi o'zgacha yo'sinda, to'g'ri talqin, o'z bolaligi bilan, o'zining chin xotiralari bilan dalil keltirib turgan odamga e'tiroz yo'q. "Quroq"da yozuvchi Ahmad A'zam bolaligini eslar ekan, ko'proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo'qdim kabi masalalar asarining markaziy tushunchasi hisoblanadi. Millatning yashash tarzi, olamni badiiy idrok etish yo'sinida ulkan o'zgarishlar yasagan XX asr o'zbek adabiyotiga xos xususiyatlarni kuzatish, ulardan muayyan ilmiy xulosalar chiqarish mutaxassislardan ulkan mas'uliyat talab qiladi. Bu asrda dunyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbeklarning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondoshish tarzi avvalgi o'nlab asrlardagiga nisbatan jiddiy o'zgardi va bu adabiyot xalqimizning ma'naviy hayotida, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotida alohida bosqich bo'lib qoldi.

Ikkinchi bob Umr sarhisobi ehtiyoji va bolalikka qaytish qismida A.A'zamning "Quroq" qissasi va A.Obidjonning "Ajnasi bor yo'llar" asarlari o'rganildi. "Quroq"da yozuvchi Ahmad A'zam bolaligini eslar ekan, ko'proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo'qotdim kabi masalalar asarining markaziy tushunchasi hisoblanadi. Asarda eshak obrazi vositasida yoshlik yana bir bor esga olinadi. Asarda hayot haqidagi o'y-fikrlar

e`tiborga molik. Bu asarda ijtimoiylik bilan bir qatorda didaktik masalarga yog`rilgan, ya`ni insonga xos bo`lgan sabr-qanot, mehnatsevarlik aks etgan voqealar kishini o`ziga tortadi.

Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” asarida voqealar tizimi olis yoshlikdan boshlab yozuvchining bugungi kunga qadar bosib o`tgan kunlari haqida batafsil bayon ketgan. Bu asarda yozuvchi bolalikka qaytish umr sarhisobi sifatida nimalarga erishdim-u, qanday imkoniyatlar qo`ldan boy berildi kabi savollarga ijodkor tomonidan javoblar berilgandek tasavvur uyg`otadi. Otasi bilan bog`liq bo`lgan bolalik xotiralari kishini chuqur o`yga toldiradi. Unda kishilarning ma`naviy qiyofalari ishonarli detallar yordamida ochib beriladi.

Ikkinchi bobdagi asarlarda bir qator ijtimoiylik ham ko`rinadi, lekin asarning bosh maqsadi bu emas. Keksalik fasliga kirgan yozuvchilar umrini sarhisob qilish bilan birga, bolalik chog`larida yuz bergan voqealarni eslash asnosida ijodkorlarda ruhiy yangilanish yuz beradi.

2.2 A. Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” asarida bolalikka qaytish umr sarhisobi sifatida.

Kishi faqat ma'lumot olish uchungina tarixni o'qimaydi. Bu unga o'tmish haqida tasavvurga ega bo'lish va xulosalar chiqarish uchun ham zarurdir. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu tinch jamiyatda tarixga qiziqish uyg'otish, xalqni o'zligini anglashga urinish mas'uliyatini ham adabiyot birinchilardan bo'lib o'z zimmasiga oladi. Nasriy asarlarimizda yozuvchilarimiz tarixga, bolalikka qaytish xotiralari asnosida kitobxon ko'z o'ngida tariximizning asl qiyofasi gavdalantirib bera oladi. Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek adiblari ijodida bolalik motivini o'rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi.

Yozuvchi birinchi bor o'z oilasining to'kin-sochinlikda yashaganlari ko'z oldiga kelib hozirgi kuni bilan solishtirgan holda eslaydi:

“Ilk bolalik chog`larim oilamizning to'kin sochin davriga to'g'ri keldi. Meni juda bashang kiyintirishga urunishardi, hadeb ovqatlantirishmoqchi bo'lishaverardi, erkalatishgani erkalatishgan edi. Ayrim qo`rs ospirinlarni hisobga olmaganda “boyning arzandasi” deb, mahalla bolalari, ayniqsa, tengqurlarim meni turtkulash tugul u yoqda tursin, ortiqcha qo`pollik qilishga ham o`zlarini imkon qadar tiyib turishardi.”

Ba`zan kishining me`dasiga tegadi bu jihatlar. Boyning farzandi deb qarashlari yosh Anvarning ko`ngliga tekkan, chunki o'z tengqurlari bilan talashib-tortishmasa bolalik nima ekanligini bilmay o'tib ketishi mumkin. Bu bilan boyning farzandlariga ham oson bo'lmagan degan xulosa chiqarish mumkin.

Boy ekanligimizdan uyalayotgandek, boshqalarga o`xshab kambag`al emasligimizdan o`ksinayotgandek edim. Barchadek bo`lishni istardim, o`zgalardan farqlanib, yovvoyidek ajralib turishni yoqtirmas edim.

Yozuvchi bundan tashqari ijtimoiy jihatlariga ham e`tibor qaratmasdan qolmagan. Ikkinchi jahon urushi davrida butun xalqning iligi qurugan bir davrda odamlarning yashash tarzida ham bu jihatlar aks etgan. U davrdagi aholining

turmush-tarzini asarda keltirish bilan hozirgi davr sharoitini solishtirib bugungi kun odamlariga shukronalik keltirishni aytib o'tmoqchi.

Ikkichi jahon urushi uqubatlardan endigina qutulgan xonadonlarning ko'pchiligi juda qashshoq edi. Mahallada yoppasiga tuproq tom uylar, ko'pining hatto ayvoni ham yo'q. falonchini tomiga shifer yopganmish deyishsa, odamlar ataylab tomosha qilgani borishardi.

Bu davrdagi boy odamlar o'zlarining yashash sharoitini yaxshilashga ko'nglidagidek uy qurishga, avtomobil sotib olish imkoniyatiga ega bo'la turib bunday qila olmagan huddi otasi aytib o'tganidek: "Zamonni ko'rib turibsizlar, kattaroq to'y qilsang, shuncha pulni qayoqdan topding, deb so'roqqa tutadiganlar ming so'm oylik bilan shuni qanday qurding demaydimi?"

Maktabga bora boshlagan paytlarimda dadam tushlikka teskarilatib sinchlik guvalakli uy qurdi. Buvim bilan ayam kattaroq qilib quyishni, tomiga shifer qoqtirishni qanchalik zorlanib so'rashmasin, dadam: "Zamonni ko'rib turibsizlar, kattaroq to'y qilsang, shuncha pulni qayoqdan topding, deb so'roqqa tutadiganlar ming so'm oylik bilan shuni qanday qurding demaydimi?"

Yoshlikdagi bolacha xasadlar hech bir qusur sifatida qaralmaydi, bu xasad orqasida raqobat bo'lgan. O'zingiz ham maktab davringizni eslab ko'ring: sinfdoshingiz sizdan ko'p baxo olsa, uni sizdan ko'p maqtasa, unga ko'p e'tabor berilsa, siz ham shu narsalarni xohlaysiz, bunga yarasha harakat qilasiz. Ijodkor ham opasiga xasad qilishi natijasida she'rlar yoza boshlagan jurnalga ketma-ket o'z asarlarini jo'natishi natijasida oxiri niyatlari amalga oshirildi:

Xolis opam Manzura degan sinfdoshining o'limiga bag'ishlab yozgan she'rini uyimizdagilarga o'qib berganida, dadamdan tortib hamma uni maqtashga tushgandi: bu maqtovlar menga qaratilmagani alam qilib, shoshmay tur, uyda baribir mendan zo'ri yo'q, degandek opamga nisbatan xasadim qo'zigan, she'r to'qishga chiranib urina boshlagan edim.

Albatta, insonni qo`lidan biror ish kelishiga ishonsa undan baxtli va kuchli deb his qiladi. Bu yaxshi jihat chunki bunday paytda insonni qo`lidan kelmaydigan ishni o`zi yo`qdek ko`rinadi. Bunday odamga sen yomonsan deb ko`ringchi!

Miraziz akaning yaxshigina taxriri bilan “G`uncha”da “Shkafcham” degan she`rim bosildi. Shu kuni “Men shoirman!” deb o`zimni o`zimga bor ovozda tanishtirdim. Endi meni shoirlikdan bezitish tugul havaskorligimga ishontirish ham amrimahol edi.

Odam yaxshi yashash dardida mehnatga ko`mlib ketadiki, bunda ba`zan o`zi va o`zligini unutish mumkin. Odamlar manfaatli munosabatlar tarafdori bo`lib qoladi. Ijodkor dadasi paxta punktda bosh tarozibon, o`ziga to`q bo`lgan bir davrda uni yo`qlab keladigan insonlar ko`p edi, deb ta`kidlaydi. Qamalgan paytda esa buning aksi bo`lib otasizlikdan qiynalganida biror kishini g`amiga sherik bo`lmaganini, hatto musodara bo`lib ketmasin deb uydagi bori pullarni qarindoshlariga saqlab turishga bergan pullarni yarmi ham qaytib kelmaganligini boshdan kechiradi:

Ular mendan hol-ahvol so`rashlarini, dadamsiz tirikchiligimiz qanday o`tayotganini surushtirishlarini kutardim... Afsuski, mening bugunim bilan hech kimning ishi yo`q edi.

“Odamlar negadur o`zidan boyroqlarni yoqtirmasligini bolaligidayoq bezillab-bezillab seza boshlagan edi... birovning kulfatidan, ayniqsa, senga hech qachon ziyoni tegmagan kishining kulfatidan quvonish! Bu holatni hozir ham tasavvurimga sig`dirolmayman”-deb, aytgan ta`kidida jon bor, boy bo`lsa, albatta, yomon ko`rish kerak degani emasku, sen ham qo`lingdan kelsa yaxshi yasha, senga to`squinlik qilyaptimi?

Dadam qamoqdiligiga goh uning ayrim o`rtoqlari, goh ba`zi qarindoshlarimiz uyimizga kelib, Obidjonni qutqarish uchun falonchiga faloncha so`m berish lozim bo`lyapti, deya ayamdan bo`lar bo`lmasdan pul undirib ketaverishgan ekan.

Otasi Obidjon qamalgandan so`ng qarindoshlari hech biri amaliy yordam berishmasdan faqat, faloncha so`m berish kerak deyiladiku shundayligicha qo`lib ketadi. Otasi qamalgach ukalari birin-ketin vafot etganligi ham dard ustiga chipqon bo`lgan.

Do`konchini chalg`itish, xavfni kamaytirish uchun, albatta, arzonrog`ini qo`limda varaqlab kelib, odob bilan suzilganimcha haqini to`lardim. Doimiy mujozlardan biriga aylanganim tufaylimi, oxirating obod bo`lgur do`konchi har safar do`stona jilmayib qarshi olardi.

Bu davr sharoitidan kelib chiqib sharoit qiyin ekanligidan sumkalar ham oddiy matodan bo`lganligini ko`rish mumkin. Hozirda esa sharoit ancha yaxshi bu tipdagi asarlar ko`proq tarbiyaviy jihat ustunroq ko`rinadi.

O`quvchilar sumkasi degan narsaning o`zi yo`q edi. Onalarimiz qalin matodan xalta tikib berar, uning bo`yniga ilib oladigan uzun bo`g`ichi, siyohlik dovot solinadigan cho`ntakchasi bo`lar edi.

Ba`zan sinfdoshim Rahimlarnikiga borardim, temirchi otasining o`chog`iga dam bosib berib, olqishini olardim. Qo`shni xonadonlar men uchun o`zga mamlakat edi go`yo. Dunyoda yalma, umoch, nonpalla, yovg`onsho`rva, piyoz va pomidorga un aralashtirilib qaymoqqa qovurilgan bulamiq singari taomlar borligini o`sha “begona yurtlar”da ko`rib bilganman.

Dadamdan tortib, ishchilarning talay qismi punkitga velosipedda kelardi. Men payt poylab yurib, ularning g`ildiragini teshaveribman-u, bu bilan ustaning cho`ntagiga baraka kiritayotganimi bilmabman.

Anvar Obidjonning bu asarida bolalikka qaytish ma`lum bir ijtimoiylikni ifodalash bilan birga ma`lum bir ma`noda didaktik ahamiyatga ega asar sifatida tasavvur qoldiradi. Bunday asarlarda yozuvchi va bolani ko`rish mumkin. Yoki boshqacha aytganda bola ko`zi bilan qarayotgan yozuvchi ko`z o`ngimizda gavdalanadi. Bunday holatlarda bolalikka qaytish boy berilgan imkonlarga achinish, o`zligini qayta anglash yoinki bolalikka nisbatan sog`inchni ifoda etadi. Ijodkor o`tmishda yuz bergan voqeani eslar ekan, uning xotiralari o`quvchi ko`z

o'ngida yuz berayotgan voqealardek taassurot qoldiradi. G'amiga sherik, quvonchiga oshno bo'ladi, shu bilan birgalikda o'quvchi ham o'z bolaligiga qaytish asnosida yangilanadi, o'xshash jihatlar solishtiriladi va yana bir karra eslanadi. Mana shu xotiralar bilan xalqimizning yashash tarzi va biz uchun tarixga aylangan davrni ko'rsatib bera olgan.

Xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishini jonli turmush manzaralarida ko'rsatib berish, uning ozodlik, tenglik va adolatli tuzum uchun olib borgan tinimsiz kurashi va bu kurashlarni madh etish o'zbek adabiyotining vazifasidir. O'tmishni badiiy aks ettirish xalqning tarixda o'z huquqi hamda ozodligi uchun kurash yo'lini, uning madaniy va ma'naviy boyliklarini yaratish uchun olib borgan harakatlarini qayta jonlantirish, ya'ni vatanparvarlikni kuylash, yosh avlodni tarbiyalashning zarur vositasi hamdir. Milliy adabiyotlarda yaratilgan tarixiy asarlar xalqlar o'rtasida tenglik va do'stlik, ularning ko'p asrlik ozodlik kurashida birlik va hamjihatlik g'oyalarini targ'ib etadi, asrlar davomida turli xalqlar tomonidan yaratilgan milliy madaniyat boyliklarining takrorlanmas badiiy xususiyatlari va qirralarini ochadi, mazkur millatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonini, ularning o'ziga xos yo'lini aniqlab olish imkonini beradi. O'tmishning hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta baholanishi, o'zlashtirilishi milliy adabiyot mundarijasining boyishiga olib keladi. Xuddi ana shu sababga ko'ra boshqa qardosh adabiyotlarda bo'lganidek, o'zbek adabiyotida ham tarixiy mavzu keng o'rin egallab kelmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos cho'qqi sanalgan asarlarning aksariyatida o'tmish mavzusi yoritilgan. A. Obidjon nafaqat san'atkor sifatida, balki olim sifatida o'zbeklar tarixining ichki oqimlariga chuqur nigoh tashlaydi, bu tarix hududiy jihatdan ham, xronologik jihatdan ham o'zbeklar tarixi tarqoqdek, parchalanib ketgandek ko'rinsa-da, aslida bir xalqning tarixi bo'lganini ko'rsatadi, bu bo'laklarning mantiqan bog'lab turadigan rishtalarini topadi. Albatta, buni u oshkora tarzda, yaqqol ko'rinib turadigan shaklda qilgan emas, u sharoitda bunday qilishning imkoni ham yo'q edi, o'z millatini ulug'lash, uning ijobiy sifatlarini madh etish

butun dunyoda ijobiy hodisa deb qaralsa-da, bizning sho‘ro mamlakatida bu millatchilik deb hisoblanar va bu yo‘lga kirgan har qanday fikrlovchi odam dahshatli ta’qiblar xavfiga va hatto jismonan faol hayotdan chetlashtirish xavfiga ham ro‘para kelar edi. Shuning uchun millatni uyg‘otishga, milliy ongni o‘stirishga, xalqni o‘z-o‘zini tanishiga yo‘naltirilgan harakatlar ko‘p hollarda ezop tilida, ramziy shakllarda olib borilardi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish kerak — bugun hammamiz “millat”, “milliy ong”, “millatning uyg‘onishi” kabi iboralarni hech tortinmasdan bemalol qo‘llayapmiz. Albatta, bu ham mustaqilligimizning sharofati, milliy erkinligimizning hosilasidir. Istiqlol bizga tariximizni qaytarib berdi va milliy ongimiz, milliy uyg‘onishimiz to‘g‘risida haqiqatni aytishga, haqqoniy fikrlashga imkon berdi. Bugun biz shu imkoniyat tufayli uzoq o‘tmishda va nisbatan yaqin tarixda yaratilgan buyuk ma’naviy qadriyatlarimizga ega bo‘ldik. Bu ishda boshqa olimlarimiz va adiblarimiz qatorida ijodkorning xizmatlari chindan ham buyukdir. Shuning uchun xalqimiz bu adibni “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlaganini katta mamnuniyat bilan qabul qildi. Shunday qilib, yozuvchi iste’dod uchun uncha qulay bo‘lmagan og‘ir zamonlarda yashagan bo‘lsa-da, eng murakkab talato‘plar orasida ham, mudhish qirg‘inbarotlar sharoitida ham inson o‘zining insoniy qadr-qimmatlarini saqlab qolishi mumkin ekanini va bu faqat uning o‘zigagina bog‘liq ekanini asarlari va hayot yo‘li orqali isbot qildi. Xalqimizning uzoq va yaqin o‘tmishini jonli turmush manzaralarida ko‘rsatib berish, uning ozodlik, tenglik va adolatli tuzum uchun olib borgan tinimsiz kurashi va bu kurashlarni madh etish o‘zbek adabiyotining vazifasidir.

O‘tmishni badiiy aks ettirish xalqning tarixda o‘z huquqi hamda ozodligi uchun kurash yo‘lini, uning madaniy va ma’naviy boyliklarini yaratish uchun olib borgan harakatlarini qayta jonlantirish, ya’ni vatanparvarlikni kuylash, yosh avlodni tarbiyalashning zarur vositasi hamdir.

Milliy adabiyotlarda yaratilgan tarixiy asarlar xalqlar o`rtasida tenglik va do`stlik, ularning ko`p asrlik ozodlik kurashida birlik va hamjihatlik g`oyalarini targ`ib etadi, asrlar davomida turli xalqlar tomonidan yaratilgan milliy madaniyat boyliklarining takrorlanmas badiiy xususiyatlari va qirralarini ochadi, mazkur millatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonini, ularning o`ziga xos yo`lini aniqlab olish imkonini beradi. O`tmishning hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta baholanishi, o`zlashtirilishi milliy adabiyot mundarijasining boyishiga olib keladi. Xuddi ana shu sababga ko`ra boshqa qardosh adabiyotlarda bo`lganidek, o`zbek adabiyotida ham tarixiy mavzu keng o`rin egallab kelmoqda.

Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” asarida voqealar tizimi olis yoshlikdan boshlab yozuvchining bugungi kunga qadar bosib o`tgan kunlari haqida batafsil bayon ketgan. Bu asarda yozuvchi bolalikka qaytish umr sarhisobi sifatida nimalarga erishdim-u, qanday imkoniyatlar qo`ldan boy berildi kabi savollarga ijodkor tomonidan javoblar berilgandek tasavvur uyg`otadi. Otasi bilan bog`liq bo`lgan bolalik xotiralari kishini chuqur o`yga toldiradi. Unda kishilarning ma`naviy qiyofalari ishonarli detallar yordamida ochib beriladi.

Ikkinchi bobdagi asarlarda bir qator ijtimoiylik ham ko`rinadi, lekin asarning bosh maqsadi bu emas. Keksalik fasliga kirgan yozuvchilar umrini sarhisob qilish bilan birga, bolalik chog`larida yuz bergan voqealarni eslash asnosida ijodkorlarda ruhiy yangilanish yuz beradi.

III BOB. BOLALIKKA QAYTISH KOMPOZITSION USUL SIFATIDA

3.1.U. Hamdamning “Muvozanat” romanida retrospeksiya

Badiiy asarda retrospeksiya – syujet voqealarini hikoya qilishda zamonda ortga qaytish usuli turli g‘oyaviy-badiiy maqsadlarni ko‘zlagan holda juda keng qo‘llaniladi. Xususan, retrospeksiya ob‘ekti bolalik bo‘lgan hollar adabiyotda juda ko‘p uchraydi. Chunki muallifning bolaligini eslashi badiiy priyom sifatida turli badiiy-estetik maqsadlarga erishish uchun g‘oyat qulay. Shu bois nosirlarimiz undan ancha keng foydalanadilar.

Yangi o‘zbek nasrida bolalik retrospeksiya ob‘ekti qilib olingan ilk asarlardan biri Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidir. Unda yozuvchi Ra‘noning qiyofasini tasvirlashdan avval o‘zining bolalik-o‘smirlik davriga qaytadi: *“Ism bilan jism bir-biriga muvofiq tushavermaydir. Menim yosh vaqtim ,ayniqsa, go‘zallik qidirg‘an mag‘rur chog‘larim edi. Oilamizdami, boshqa erdami, baharhol xotiramda yaxshi qolmag‘an, Lola otliq bir qizning chevarligi haqida so‘z bo‘ldi. Majlis ahli menga yaqin, ya‘ni ular oldida husndan bahs ochish uyat bo‘ladirg‘an kishilar edilar. Shuning uchun menga Lolaning chevarligidan ko‘ra muhimroq bo‘lgan “husn”i masalasida izohot so‘rashning imkoni bo‘lmadi. Lekin Lola ismining ostida bir malakni ko‘rgan – “Lolaning ismiga o‘xshash husni ham bor deb” o‘ylag‘an edim. Shu kundan boshlab Lolani ko‘rish hajriga tushdim. Bo‘yi etgan qizlarni ko‘ra olish bu kunlarda ham amri mahol bo‘lganidek, munda o‘n yillar ilgari yana mushkulroq edi. Necha vaqt “hijron o‘tida yonib”, ko‘cha poylab, nihoyat Lolani suv olish uchun ko‘ra ushlab ko‘chaga chiqqan holatda uchratdim, “lola”likka arziydigan hech gap yo‘q edi. Ammo Ra‘noning ismi-jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushgan”.*

Bolalikdagi voqeani eslash bilan yozuvchi Bu o‘rinda o‘z o‘quvchisini Ra‘no haqida aytilajak gaplarni qabul qilishga emotsional jihatdan tayyorlaydi, unda qahramoniga beradigan ta‘rifi hech bir e‘tiroz tug‘dirmaydigan ruhiy holatni

hosil qiladi. Bolalikni eslash asnosi adib bilan o'quvchi orasida bevosita samimiy muloqot yuzaga keladi. E'tiborli tomoni, muallif o'quvchisini o'ziga yaqin olib, hammaga ham aytilavermaydigan gaplarni aytmoqda. Xuddi shu o'zaro ishonch ruhi, samimiyat balqib turgan bevosita muloqot asnosida *"Ra'noning ismi- jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushgan"*i ta'kidlanadiki, o'quvchi bunga beshak ishonadi. Boshqacha aytganda, bu o'rinda retrospeksiya usuli ishontirish funksiyasini bajaradi.

Retrospeksiyaning asar strukturasida tutgan o'rni, muayyan mazmunni ifodalashdagi ahamiyatini yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani misolida ham ko'rish mumkin. Ijodkor asar davomida bu usuldan ko'p va samarali foydalangan. Dastlab Toshkentdan oilasi bilan qishlog'iga kelayotgan Yusuf o'g'lining Ulug'toqqa ishora qilishi bahona bolaligini – oilaviy tarzda Ulug'tog' safariga chiqqanlarini eslaydi. Tog' safariga ketayotgan *"Yusufning quvonchi ichiga sig'masdi... Sevinchdan bolaning choy ichkisi ham kelmay qoldi... Traktor tovushi eshitilishi bilan uchub tashqariga chiqdi. Traktor chiroqlarini yoqqancha signal berib keldi. Birin-ketin otasi tugun va o'tinni, onasi Elbekni ko'tarib, akasi Amir esa Obid va Olimning qurshovida chiqib kelishdi... Yusufning yuragi dukduk urardi. U hech qachon bunchalik ko'p odam bilan hech qaerga bormagandi"*.

Yusufning bolaligini eslashidagi dominant tuyg'u – sog'inch, bu tuyg'u esa biron nima etishmayotganida, ayniqsa, juda kuchli bo'ladi. U bolaligidagi nimani sog'inadi? Yusuf katta shaharda hayot tashvishlari bilan elib-yugurib charchagan, buning ustiga o'tish davrining og'ir sharoitida ancha uringani ham bor gap. Eng muhim nuqta shuki, bu kiyinchiliklarning hammasiga u yolg'iz o'zi qarshi turgan. Holbuki, u ko'p farzandli o'zbek oilasida tug'ilib o'sgan, oilaning barcha a'zolari, yaqin qarindoshlari bilan birlik hissini o'tkir tuyub ulg'aygan odam. Sezish mumkinki, qishloqqa kelguniga qadar ham, turmushda qiynalgan, qiyinchiliklarni engishga yolg'iz kuchi etmayotganini his qilgan onlar dilida bot-bot bolalik sog'inchi uyg'onib turgan. Zero, bolaligida o'zgacha edi. Hamma bir-biriga

mehribon, oqibatli edi. Oiladagi hamma muammolar birgalikda hal qilinar, bayrammi, ishmi, o'yin-kulgimi, sayrmi oila a'zolari jamuljam bo'lishardi. Avvallari tug'ishganlari va do'stlari bilan ahillik, birlik degan tushunchalar bor edi. Hozir unga shu narsalar etishmayapti, o'sha birlik, o'sha mehr, o'sha damlar uning bolaligida qolib ketgan. Endi-chi?

Qishlog'iga kelib ko'rgani – hamma yaqinlari, qadrdon do'stlari o'zlari bilan o'zlari ovora, hamma turmush tashvishlari bilan band. Ularni kuzatib, YUusuf yaqinlari, hamqishloqlarining turmush tarzida jiddiy o'zgarishlar yuz berayotgani, kishilar ruhiyatida burilish sodir bo'layotganini chuqur his qiladi. Va shu asno o'zi ham turmushida, ruhiyatida burilish yasashga burchli ekanini teran anglab boradi. Bu o'rinda retrospeksiya “o'tmish” va “hozir”ni o'zaro qiyoslash, qahramonning hayot haqidagi og'riqli o'y-mushohadalariga turtki berishi bilan ahamiyatlidir.

Yusuf bolaligidagi yana bir voqeani – qor yoqqan kuni hali iz tushmagan ko'chaga birinchi bo'lib chiqqanini ham eslaydi. Bolaligida: *“...tizzasigacha qor kechib, yo'lakdan katta yo'lga chiqdi va hali iz tushmagan ko'cha qarshisida to'xtadi”*. Bolaning zavqini keltirgan narsa, unga qadar bu yo'lda hali hech kimning yurmagani, uning o'zi yo'l ochib borayotgani edi. Biroq, *“uzoqdan chiroqlarini yoqqancha sekin g'ildirab aftobus kelayotganini ko'rdi. Bularning hammasi bir pasda – xuddi ko'z ochib yumguncha bo'lib o'tdi. YUusuf avtobusning orqasidan qorning tilimlab tashlangan bag'riga mo'ltirabgina qararkan, nima qilarini bilmasdi. Oldinga yuray desa, qizig'iyu zavqi qolmagandi: hammasini avtobus barbod qilgan, bir emas, ikki yo'l solgan edi”*. Anglash mumkinki, Yusuf uchun zavq qolmaganining sababi – tayyor yo'ldan izma-iz borishni istamagani. Hali hech kim iz solmagan qor ustidan yurayotgan Yusuf hayot varaqlariga o'zi yo'l solayotgan, taqdir bitiklarini o'z qo'llari bilan bitayotgandek. Lekin yangi iz solish istagidagi Yusuf hali tamoman yangi yo'l solib bo'lmasligini anglamaydi, zero kishilik jamiyatining o'z qonun-qoidalari, an'analari bor. Yusuf ham tamom yangi yo'l ochgani yo'q – faqat u avtobus haydovchisi bo'ldi, xolos: *“Yaqinlashib qolgan avtobus dahshatli darajada baland va bo'g'iq tovushda signal berdi. Bola*

shoshib haydovchiga qaradi va ne ko‘z bilan ko‘rsinki, u o‘zi edi, faqat yoshi etti-sakkizda emas, o‘ttiz etti-o‘ttiz sakkizda edi. Bolaning xotirasiga eng so‘ng sanchilgan nayza-haydovchi yuziga toshib chiqqan dahshat bo‘ldi... Va... va... og‘ir temirning ko‘kragiga zarb bilan urilganini sezdi, yana o‘sha hali hech kimning izi tushmagan ko‘cha. Avtobus unga qarab yurib kelyapti. YUusuf joyidan jilmadi. Haydovchi – o‘zi. Ko‘kragiga qandaydur temirning kelib uruiganini his qildi”.

Inson jamiyatdan butkul uzilishga ojiz, juda bo‘lsa yo‘l boshlovchi bo‘lar, haydovchi bo‘lar, aslo bundan ortiq emas. Ko‘rib turganimizdek, avtobus – ramziy obraz. U muallif anglab etgan haqiqatni ifodalash vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu esa retrospeksiyaning yana bir funksiyasi – badiiy konsepsiyani ifodalash funksiyasi haqida to‘xtalish imkonini beradi.

Muallif asar bosh qahramoni hayotini o‘tmishga qaytib tasvirlar ekan, “kecha”si va “bugun”nidagi ruhiy-ma’naviy o‘zgarishlarni ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan. Yusufdagi o‘zgarishlarni o‘quvchi yaqqolroq tasavvur qilishi va solishtirishi uchun retrospeksiyaning qo‘llanilishi o‘rinli. Bu orqali asar qahramonning o‘tmishiga qaytib, shu kun nuqtai nazari bilan uni va atrofida qilarni kuzatish imkonini beradi.

O‘zbek adabiyotida to‘la bolalikka qaytib, uni eslab yozilgan bir qator asarlarni uchratish mumkin. G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar” va yana bir qator asarlarni sanab o‘tish mumkin. Bunday asarlarda YOZUVCHI va BOLAni ko‘rish mumkin. Yoki boshqacha aytganda bola ko‘zi bilan qarayotgan yozuvchi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Bunday holatlarda bolalikka qaytish boy berilgan imkonlarga achinish, o‘zligini qayta anglash yoinki bolalikka nisbatan sog‘inchni ifoda etadi. Ijodkor o‘tmishda yuz bergan voqeani eslar ekan, uning xotiralari o‘quvchi ko‘z o‘ngida yuz berayotgan voqealardek taassurot qoldiradi. G‘amiga sherik, quvonchiga oshno bo‘ladi, shu bilan birgalikda o‘quvchi ham o‘z bolaligiga qaytish asnosida yangilanadi,

o'xshash jihatlar solishtiriladi va yana bir karra eslanadi. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida asar bosh qahramonining boshdan kechirgan voqealari shu darajada ishonarli chiqqanki, bu voqealar hech bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. Yozuvchining bolalik hotiralarini eslashi vositasida o'sha davr kishilarining turmush tarzi, taqdiri, maishiy hayotdagi voqealar, mansabdor kishilarning ma'naviy qiyofasini chizish maqsad qilingan. Yozuvchi Shum bolaning shahar-mahallalar, qishloq-mahallalar yurganini tasvirlash orqali qahramon bo'lgan joylardagi xalq ruhiyatini, o'y-xayollarini, orzu-umidlarini, ma'nan qashshoq boylarni-yu, insoniy fazilatlarga boy kambag'allar hayotini ko'rsatib bergan. Asar bosh qahramoni Shum bola salbiy qahramonlardan go'yoki o'ch olgandek taassurot qoldiradi. Bu shoh asar hali ko'p yillar o'zbek adabiyotining durdonasi sifatida o'qilishi shaksiz.

Bolalik retrospeksiya ob'ekti bo'lgan asarlarni o'qir ekanmiz, muallif bolaligini nima uchun eslayapti, u qanday vazifa bajaryapti, qaysi voqealarni eslayapti-yu qay tarzda tasvirlayapti degan savollarni qo'ya olsak, yozuvchining ko'zlagan maqsad va muddaolarini to'laroq tushunishimizga asos bo'ladi.

Bolalikka qaytish kompozitsion usul sifatida deb nomlangan uchunchi bobda obyekti bolaik bo'lmagan, lekin asar kompozitsiyasidan kelib chiqib bolalik xotiralariga qaytgan asarlarni tahlilga olganmiz. Bunda ortga qaytish, ya'ni retrospeksiyaning asar strukturasidagi ahamiyati tekshirildi. Ishningning bu qismida Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asarida retrospeksiyaning badiiy-estetik fuksiyalari ko'rib chiqildi. Muallif asar bosh qahramonining hayotini o'tmishga qaytib tasvirlar ekan, "kecha"si va "bugun"nidagi ruhiy-ma'naviy o'zgarishlarni ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan. Yusufdagi o'zgarishlarni o'quvchi yaqqolroq tasavvur qilishi va solishtirishi uchun retrospeksiyaning qo'llanilishi o'rinli. Bu orqali asar qahramonning o'tmishiga qaytib, shu kun nuqtai nafari bilan uni va atrofidagilarni kuzatish imkonini beradi.

Bolalik retrospeksiya ob'ekti bo'lgan asarlarni o'qir ekanmiz, muallif bolaligini nima uchun eslayapti, u qanday vazifa bajaryapti, qaysi voqealarni

eslayapti-yu qay tarzda tasvirlayapti degan savollarni qo‘ya olsak, yozuvchining ko‘zlagan maqsad va muddaolarini to‘laroq tushunishimizga asos bo‘ladi.

3.2.Retrospeksiyaning asar strukturasidagi ahamiyati.

Retrospeksiya (lotincha“perpo”-orqa,“spekto” qaramoq) kompozitsion unsuri sifatida ko`rish mumkin. syujet voqealarini hikoya qilishda zamonda ortga qaytish usuli turli g`oyaviy-badiiy maqsadlarni ko`zlagan holda juda keng qo`llaniladi. Xususan, retrospeksiya ob`ekti bolalik bo`lgan hollar adabiyotda juda ko`p uchraydi. Chunki muallifning bolaligini eslashi badiiy priyom sifatida turli badiiy-estetik maqsadlarga erishish uchun g`oyat qulay. Shu bois nosirlarimiz undan ancha keng foydalanadilar.

Har qanday orqaga qaytish retrospeksiya bo`lib qolavermaydi. Voqealar rivojida biror bir voqeani isbotlash , fikrni dalillash, nimagadur ishontirish uchun to`xtalib ortga qaytiladi. Mana shu qaytish jarayoni asarda ma`lum bir estetik-badiiy vazifani bajaradi. Yozuvchi Abdurashid Nurmurodning “Bolalikka otilgan o`q” asarini adabiyotimizda yangicha tarz deyish mumkin. Adabiyotchilar bu turkum asarlarni roman-xotira, hujjatli roman, og`zaki tarix... deb atashmoqda. Gap nima deb atalishida emas, mohiyatida. “Bolalikka otilgan o`q”ning qahramonlari bolalik shod-u hurramliklarini, masrur damlarni neligini bilmagan, tatimagan odamlardir. Bunday odamlar, ayni paytda har bir qishloqda, mahallada yashaydilar. Ular olisda kechgan urishning og`ir asorati – o`zlari boshiga, yurtimiz boshiga ne ko`rgiliklar solganini hikoya qilib beradilar. Bunday hikoyalarni ilgari ham eshitgan bo`lsak ham, loqaydligimiz tufayli, unchalik e`tabor bermaganmiz. Muallif mana shunday o`zaro gurunglarda aytilagan tarixni o`z g`oyasi, maqsadiga tegishli o`rinlarni qog`ozga tushurib, odamlar tabiatining urush davridagi manzarasini chizib beradi. Jonli hikoyalarda qalbimizda o`chmas iz qoldiradi. Odamlarning musibatli onlariga sherik bo`lganimizni bilmay qolamiz, bolaligiga achinamiz. Bunday tuyg`u sizni ham chulg`ab oladi:

Urush davrining ayanchli fojealari ko`z oldimizga keladi. Barcha o`zi bilan o`zi ovora bir paytda biror kishini g`amini yeyish juda mushkul ishdur.

Notanish ayol qishlog`imizni oraladi. Bahor edi. Charaqlab chiqqan quyoshning tafti sezilmaydi. Ammo ayol, chokidan so`kilgan, kiyilaverib hilvirab

qolgan ko'ylakda. Hali sutdan ajralmagan bolasini uvada choponga o'ragan. Qachonlardir tikilgan chopon... Hozir unday choponlarni qishloq bolalari hatto tayxorlarning ustiga ham tashlamaydi.

Ayol duch kelgan xonadon eshigiga bosh suqib, bir burda non so'radi. Ammo hech kim o'zidan ortirib unga muruvvat ko'rsata olmadi.

Bunday asarlarda yozuvchi va bolani ko'rish mumkin. Yoki boshqacha aytganda bola ko'zi bilan qarayotgan yozuvchi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bunday holatlarda bolalikka qaytish boy berilgan imkonlarga achinish, o'zligini qayta anglash yoki bolalikka nisbatan sog'inchni ifoda etadi. Ijodkor o'tmishda yuz bergan voqeani eslar ekan, uning xotiralari o'quvchi ko'z o'ngida yuz berayotgan voqealardek taassurot qoldiradi. G'amiga sherik, quvonchiga oshno bo'ladi, shu bilan birgalikda o'quvchi ham o'z bolaligiga qaytish asnosida yangilanadi, o'xshash jihatlar solishtiriladi va yana bir karra eslanadi.

Asarni o'qish davomida o'sha davr kishilarining ma'naviy-ruhiy jihatlarini aniq tasvirlab bergan. Hammamizning yelkamizda hilviragan, yirtiq xaltalar. Yangi yo'q. onalarimiz yangisini otalarimiz kelganda tikib berishga va'da qilishgan. Otalarimizni tongda yo'l boshiga, tunda qirga chiqib kutamiz. Onalarga bu paytlarda ham qiyin bo'lgan urushga hamma otalar ketilgan ularning og'ir mehnatini onalar katta

Bolakayning eski choponi menga juda tanish edi. Ha, u kecha onasi bilan har xonadonga bosh suqib, bir burda non izlab yurgan ayolning farzandi edi.

U tomonlarni sovuq, deb yozgan otamga qanday qilib yordam berish haqida o'ylardim. Nihoyati Salim jo'ramning uyidagi bir juft paypoqni ko'z ostiga oldim niyatimga ham erishdim. "Qayerdan olding? Kimnikini o'g'irlading", deya onam qiynov-qistoqqa olganda: "Otamga yuboring", dedim beixtiyor.

Darvoqe ular bolaligini eslashni xohlashmaydi...

Eslab qolishganda esa qarshingizda bur burda nonga zor insonga aylanishadi. "Non urvog'iga zor eding-a, non urvoog'iga zor eding-a" deyishib, dasturxon ustidagi nonga beixtiyor qo'llari cho'ziladi.

Qoravoy!

Jonim boricha qichqirib, ortidan chopdim. Qoravoy goh menga, goh yordam so`rab dodlayotgan Nosirga qarardi, ko`zlarida bir ifoda: talashish uchun gij-gijlamayotganligim uchun hayronlik... tezgina tasmaidan ushlab, o`zimga tortdim. U bo`ysindi-da, oyoqlarini titrayotgan yelkadan olib, qo`limni yalay boshladi. Paytdan foydalangan Nosir quyon bo`ldi...

Hovuri chiqib turgan tovoq. O`n to`rtta termilgan och ko`z och ko`zlar va nasiba ulashuvchi yagona zot – Ota.

bu asarida bolalikka qaytish ma`lum bir ijtimoiylikni ifodalash bilan birga ma`lum bir ma`noda didaktik ahamiyatga ega asar sifatida tasavvur qoldiradi. Bunday asarlarda yozuvchi va bolani ko`rish mumkin. Yoki boshqacha aytganda bola ko`zi bilan qarayotgan yozuvchi ko`z o`ngimizda gavdalanadi. Bunday holatlarda bolalikka qaytish boy berilgan imkonlarga achinish, o`zligini qayta anglash yoiniki bolalikka nisbatan sog`inchni ifoda etadi. Ijodkor o`tmishda yuz bergan voqeani eslar ekan, uning xotiralari o`quvchi ko`z o`ngida yuz berayotgan voqealardek taassurot qoldiradi. G`amiga sherik, quvonchiga oshno bo`ladi, shu bilan birgalikda o`quvchi ham o`z bolaligiga qaytish asnosida yangilanadi, o`xshash jihatlar solishtiriladi va yana bir karra eslanadi.

Bunday holatlarda bolalikka qaytish boy berilgan imkonlarga achinish, o`zligini qayta anglash yoiniki bolalikka nisbatan sog`inchni ifoda etadi. Ijodkor o`tmishda yuz bergan voqeani eslar ekan, uning xotiralari o`quvchi ko`z o`ngida yuz berayotgan voqealardek taassurot qoldiradi.

“Quroq” haqidagi asosiy gaplar hali aytilgan yo`q. bu ikki og`iz bilan aytiladigan gap emas. Qishloqning shu bir qishloq misolida o`zbekning millatning, xalqning dardi o`zgacha yo`sinda, to`g`ri talqin, o`z bolaligi bilan, o`zining chin xotiralari bilan dalil keltirib turgan odamga e`tiroz yo`q. “Quroq”da yozuvchi Ahmad A`zam bolaligini eslar ekan, ko`proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo`qdim kabi masalalar asarining markaziy tushunchasi hisoblanadi. “Insonni tadqiq etishda, uning to`laqonli

timsolini yaratishda san'atkorona mashhur tarixiy shaxslarning ibratomuz hayoti va faoliyati qo'l keladi. Barcha xalqlarda mashhur tarixiy shaxslarga, ularning shaxsiy hayoti, ijodi, faoliyatiga qiziqish kuchli bo'lgan. Ayniqsa, ijodkor shaxslar – shoir va adiblar hamisha zamondoshlarining ham, avlodlarning ham nazarida bo'lganlar. Tarixiy ijodkor shaxslar haqida badiiy asar yaratish ma'lum tarbiyaviy ahamiyatga ham ega va bunday asarlar xalqning o'z tarixi, qadriyati, ajdodlari va madaniyatiga bo'lgan munosabatini ham ko'rsatadi".¹ Asarda yozuvchi aksari hollarda qahramonlar xarakteridagi xususiyatlarni obrazning ichki kechinmalari, o'y hayollari va iztiroblari orqali emas, ko'proq personajlarining harakatlari, nutqlari orqali, ba'zi o'rinlarda esa quruq bayon orqali ko'rsatishga uringan. Bu narsa muallifning roman taraddudiga asosan dramatik asarlar orqali kelganligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bosh qahramonning ichki kechinmalari, qahramon ichdan tasvirlagan o'rinlarda personaj характери o'zining butun ziddiyatlari bilan birga, bor bo'yi bilan ko'ringan. Bunday epizod yoki boblar roman badiiyatini ko'tarishga hizmat qilgan. "Tarixiy shaxs haqidagi badiiy asarda bosh qahramonning faoliyatini ko'rsatishga, karakter qirralarining ochilishga hizmat qiluvchi xalq vakillarining timsollari – to'qima obrazlar ham yaratiladi".² asar voqealari tasvir etilayotgan davrdagi turli ijtimoiy tabaqalarini ko'rsatishni ham maqsad qilgan edi. chunki roman faqatgina bosh qahramon faoliyatini ko'rsatibgina qolmasdan, balki murakkab tarixiy sharoitni, bu davrdagi ijtimoiy, siyosiy, maishiy hayotni ham aks ettirishi kerak edi. Bunday obrazlar yozuvchi niyatiga ko'ra, ma'lum tarixiy davr fuqarolarining ijtimoiy – siyosiy ahvoli, ruhiyati haqida ma'lumot beradi.

¹ H. Karim Tarixiy shaxs va badiiy obraz. – T: 2006 yil, 98 – bet.

² H. Karim Tarixiy shaxs va badiiy obraz. – T: 2006. 101 – bet.

XULOSA

Hozirgi o'zbek adabiyoti o'ziga xos an'ana va badiiy mezonlar asosida shakllangan. Hozirgi o'zbek nasri taraqqiyotida jiddiy o'sish-o'zgarish yuz berdi. Jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'analar bir qator yangicha talqin uslubi va yangicha shakliy ko'rinishlar bilan kirib kelmoqda.

Zamonaviy o'zbek adabiyotidagi bolalikning badiiy talqinlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarida xalqning tarixini ro'y-rost ko'rsatib berish orqali muallif "kecha" va "bugun"ni solishtirib, tarixiy haqiqatlatni oshkor qilgan. Asarda dunyoni qayta anglash jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Asardagi dastlabki voqealariga yosh Abdullaning bolalarcha sodda qarashlari beriladi, qissa davomida esa, keksalik qiyofasiga kirgan, hayotni keng o'ylovchi katta Abdulla Qahhorning fikrlari ko'rinadi. "O'tmishdan ertaklar" asarida bola nigohi orqali jamiyatning ijtimoiy hodisalariga baxo beriladi. Oilasini ko'chib yurishi va bu orqali "kelgindi"ga aylanishi atrofidagi voqealar uning qalbida o'chmas iz qoldirgan. Ayniqsa, mehribon, mo'min Olim buvaning otasi usta Abduqahhorga bo'lgan munosabati, hayot neligini bilmasdan o'lib ketgan Savriniso, xotinini tirik qolishi uchun har ishga tayyor Babar kabi xalqning tipik vakillarining ayanchli taqdiri ijodkorning keksaygan damlarida ham kecha bo'lib o'tgan voqeadek taassurot qoldiradi. Bu asar yozuvchining bolalik xotiralari ijtimoiy hayotni qayta tahrirdan o'tkazgan holda, o'zining qarashidagi baxoni bergan.

Ishning G'.G'ulomning "Shum bola" asarida bolalik xotiralari qismi yuzasidan chiqarilgan xulosa shu bo'ldiki, "Shum bola" qissasi, mohiyat e'tibori bilan, birinchi jahon urushi arafasidagi o'zbek xalqi hayoti, undagi qiyinchilik va mashshaqatlar bola ko'zi va nigohi orqali, sarguzashtnamo hangomalar asosida va yumorga yo'g'rilgan bir uslubda badiiy gavdalantirilgan sarguzash asar sifatida baxolandi.

Yozuvchi shum bolaning shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib yurishlarini tasvirlash jarayonida xalq hayotining keng manzararasini, yashash tarzini, ruhiyatini, o`y-hayollarini, orzu umidlarini aks ettirilgan. Sariboydan o`ch olishi, Eshonlarning hatti-harakatlari, yashab qolish uchun olib borilgan kurashlar asarning markaziy sujetlari sifatida ko`rinadi.

Oybekning “Bolalik” qissasida ham shunga o`xshash ijtimoiy qarashlarning ifodasini ko`rish mumkin. Yuqoridagi asarlar bilan tutash nuqtalar bo`rligi seziladi. Bu ijodkorlarning asarlari shaklan har xil bo`lsa-da, mazmunan ifodalanayotgan jihatlar bir. Qissada o`zi bolalik davrida boshidan o`tkazgan, guvohi bo`lgan voqealarni ma`lum yetuklik yoshida qayta yashashga, estetik jihatdan idrok qilishga, yaxlit bir butunlik sifatida tahlil qilishga katta ehtiyoj sezgan. Natijada Oybekning butun bolaligi, o`smirligi davrlari voqea-hodisalarini o`zida mujassam qilgan avtobiografik asar dunyoga kelishiga sabab bo`ldi. “Bolalik” asarida yozuvchining o`sha davrdan alamzadaligi sezilib turadi. Bola nigohi orqali jamiyatni tanazzulga olib borgan jihatlar ko`rsatilgan.

Ikkinchi bob Umr sarhisobi ehtiyoji va bolalikka qaytish qismida A.A`zamning “Quroq” qissasi va A.Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” asarlari o`rganildi. “Quroq”da yozuvchi Ahmad A`zam bolaligini eslar ekan, ko`proq boy berilgan imkonlar, amalga oshmagan orzular, nimalarga erishdim-u, nimalarni yo`qotdim kabi masalalar asarining markaziy tushunchasi hisoblanadi. Asarda eshak obrazi vositasida yoshlik yana bir bor esga olinadi. Asarda hayot haqidagi o`y-fikrlar e`tiborga molik. Bu asarda ijtimoiylik bilan bir qatorda didaktik masalarga yog`rilgan, ya`ni insonga xos bo`lgan sabr-qanot, mehnatsevarlik aks etgan voqealar kishini o`ziga tortadi.

Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo`llar” asarida voqealar tizimi olis yoshlikdan boshlab yozuvchining bugungi kunga qadar bosib o`tgan kunlari haqida batafsil bayon ketgan. Bu asarda yozuvchi bolalikka qaytish umr sarhisobi sifatida nimalarga erishdim-u, qanday imkoniyatlar qo`ldan boy berildi kabi savollarga ijodkor tomonidan javoblar berilgandek tasavvur uyg`otadi. Otasi bilan bog`liq

boʻlgan bolalik xotiralari kishini chuqur oʻyga toldiradi. Unda kishilarning maʼnaviy qiyofalari ishonarli detallar yordamida ochib beriladi.

Ikkinchi bobdagi asarlarda bir qator ijtimoiylik ham koʻrinadi, lekin asarning bosh maqsadi bu emas. Keksalik fasliga kirgan yozuvchilar umrini sarhisob qilish bilan birga, bolalik chogʻlarida yuz bergan voqealarni eslash asnosida ijodkorlarda ruhiy yangilanish yuz beradi.

Bolalikka qaytish kompozitsion usul sifatida deb nomlangan uchunchi bobda obykti bolaik boʻlmagan, lekin asar kompozitsiyasidan kelib chiqib bolalik xotiralariga qaytgan asarlarni tahlilga olganmiz. Bunda ortga qaytish, yaʼni retrospeksiyaning asar strukturasidagi ahamiyati tekshirildi. Ishningning bu qismida Ulugʻbek Hamdamning “Muvozanat” asarida retrospeksiyaning badiiy-estetik fuksiyalari koʻrib chiqildi. Muallif asar bosh qahramonining hayotini oʻtmishga qaytib tasvirlar ekan, “kecha”si va “bugun”nidagi ruhiy-maʼnaviy oʻzgarishlarni koʻrsatishni maqsad qilib qoʻygan. Yusufdagi oʻzgarishlarni oʻquvchi yaqqolroq tasavvur qilishi va solishtirishi uchun retrospeksiyaning qoʻllanilishi oʻrinli. Bu orqali asar qahramonning oʻtmishiga qaytib, shu kun nuqtai nazari bilan uni va atrofida qilarni kuzatish imkonini beradi.

Bolalik retrospeksiya obʼekti boʻlgan asarlarni oʻqir ekanmiz, muallif bolaligini nima uchun eslayapti, u qanday vazifa bajaryapti, qaysi voqealarni eslayapti-yu qay tarzda tasvirlayapti degan savollarni qoʻya olsak, yozuvchining koʻzlagan maqsad va muddaolarini toʻlaroq tushunishimizga asos boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият. 2008.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
3. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
4. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан, 1991. – 334 б.
5. Аъзам А. Қуроқ. // Ёшлик, 2013. – № 1.
6. Бобур, Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Ўқитувчи, 2008.
7. Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016.
8. Йўлдошев Қ. Замонларни кесиштирган ёзувчи. // Тил ва адабиёт таълими, 2008. – №4. – 3-б.
9. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. – Т.: Фан, 1982.
10. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқ. XX аср ўзбек адабити тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
11. Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
12. Каримов Ҳ. Тарихий шахс ва бадиий образ. – Андижон, 2011.
13. Назаров Б. Ғафур Ғулом олами. – Т.: Ўзбекистон ФА, 2004.
14. Нурмурод А. Болаликка отилган ўқ. // Шарқ юлдузи. 1993. – № 6.
15. Обиджон А. Ажинаси бор йўллар // Шарқ юлдузи. – 2014. – №2.
16. Ойбек. Болалик. – Т.: Фан, 1977.
17. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986.
18. Суяров Қ. Қоровой // Шарқ юлдузи, 2001. – № 2.
19. Файзиев Т. Мирзо Улуғбек авлодлари. – Т., 1994.
20. Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Т.: Ёш гвардия, 1988.
21. Шералиева М. Бобурнинг андишаси. – Т.: Турон замин зиё, 2015.
22. Қаям Р. Йўқчилик // Шарқ юлдузи. 1996. – № 4.
23. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988.
24. Қўшжонов М. Адабий портретлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1982.
25. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Халқ мероси, 2004.

- 26.Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 257 б.
- 27.Ҳамдам У. Мувозанат. – Т.: Шарқ, 2007.
- 28.Qahhor A. O`tmishdan ertaklar.- Toshkent: Fan, 2012.
- 29.Ғафуров И. Ҳаётнинг тоза кўзгуси. // Шарқ юлдузи, 1978. №11.
- 30.G`ulom G`. Tanlangan asarlari. – Т., 2012.
- 31.Ҳазраткулов Б. Таъкиб // Шарқ юлдузи. 1997. – № 2.
- 32.<http://www.ziynet.uz/>
- 33.<http://www.google.co.uz/>
- 34.<http://www.kitob.uz/>